

## YANGI O‘ZBEKISTON

Ijtimoiy-siyosiy gazeta

№ 100 (1161), 2024-yil 24-may, juma



www.yuz.uz



yuz.uznews



yuz\_official



yuz.uz\_news



yuz



## ERKIN VOHIDOV IJODIGA BAG‘ISHLANGAN ADABIY FESTIVAL QATNASHCHILARIGA

Aziz yurtdoshlar!

Muhtaram adiblar, qadrlil yoshlarimiz!

Avvalo, barchangizni elimizning suyuqli farzandi, O‘zbekiston Qahramoni, O‘zbekiston xalq shoiri Erkin Vohidovning betakror ijodiga bag‘ishlangan bugungi festival — o‘ziga xos adabiyot va san‘at bayrami bilan chin qalbidan tabriklayman.

Ma‘lumki, xalqimizning aql-zakovati va azmu shijoati bilan barpo etilayotgan Yangi O‘zbekistonda milliy adabiyot, madaniyat va san‘atni rivojlantirish mamlakatimizda olib borilayotgan davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishini tashkil etadi.

Zotan, ma‘rifatparvar shoirimiz Abdulhamid Cho‘lponning “Adabiyot yashasa — millat yashar” degan hikmatli so‘zlarida chuqur ma‘no bor.

O‘zbek mumtoz va zamonaviy adabiyotini har tomonlama o‘rganish va keng targ‘ib qilish, uni bugun yuz berayotgan murakkab jarayonlar bilan uzviy bog‘liq holda tahlil etib, zarur xulosalar chiqarish ma‘naviy hayotimizni yuksaltirishda, hech shubhasiz, katta ahamiyatga ega. Ayniqsa, hozirgi notinch va tahlikali zamonada milliy o‘zligimizni anglash, azaliy ezuq qadriyatlarimizni saqlash va boyitish har qachongidan ham dolzarb ahamiyat kasb etmoqda.

Bunday o‘ta muhim vazifalarni amalga oshirishda xalqimizning Erkin Vohidov kabi buyuk va ardoqli farzandlarining qutlug‘ va o‘lmas merosi albatta beqiyos o‘rin tutadi.

O‘ylaymanki, bu mo‘tabar zotni ortiqcha ta‘riflab o‘tirishning hojati yo‘q. Ulkan shoir va dramaturg, mohir tarjimon va o‘tkir publitsist, taniqli jamoat arbobi sifatida Erkin Vohidovning asarlari milliy adabiyotimizning “oltin fondi”dan, yurtimiz va chet ellardagi ming-minglab adabiyot muxlislarining qalbidan munosib va mustahkam o‘rin olgani bilan har qancha g‘ururlansak arzaydi.

Hozirgi vaqtda yurtimizda ulug‘ shoirimiz xotirasini e‘zozlash va boy ijodiy merosini o‘rganish bo‘yicha katta ishlar qilinmoqda. Xususan, Marg‘ilon shahrida ijodkorlar bog‘i bunyod qilinib, sevimli adibimizning haykali va muzeyi ochildi. Erkin Vohidov nomidagi ijod maktabi tashkil etildi. Poytaxtimizning Adiblar xiyobonida u kishiga bag‘ishlab

muhtasham yodgorlik obidasi qad rostlandi. Shoir tavalludining 80 yilligi yurtimiz bo‘ylab keng nishonlandi.

Men Erkin Vohidovdek serqirra iste‘dod egasi, haqiqiy vatanparvar va millatparvar inson bilan zamondosh va maslakdosh bo‘lib yashash nasib etganidan baxtiyorman.

Yurtimizda ma‘naviy-ma‘rifiy sohalarida olib borilayotgan bugungi jo‘shqin islohotlarimizda Erkin Vohidov, Abdulla Oripov, Halima Xudoyberdiyeva, Muhammad Yusuf singari betakror ijodkorlarimizning o‘mi har qadamda sezilib turadi. Ammo hozirgi kunda yetishib kelayotgan iste‘dodli yoshlarimiz — mening aziz va qadrlil farzandlarim buyuk ustozlarining yo‘lini munosib davom ettirayotgani bizga tasqin beradi.

Bugungi ijodiy anjuman doirasida ardoqli shoirimizning otashin va dilbar she‘rlari yangrayotgani, u kishining g‘azalari asosida aytilgan qo‘shiqlar tanlovi o‘tkazilayotgani, bu so‘lim maskanda Erkin Vohidov nomida bog‘ barpo etilayotgani tahsinga sazovordir.

Biz ushbu adabiy festivalni har yili an‘anaviy tarzda o‘tkazish taklifini qo‘llab-quvvatlaymiz. Zero, buyuk tarixga ega bo‘lgan, o‘z o‘tmishidan g‘ururlanib, ayni vaqtda, kelajakka yuksak ishonch bilan intilayotgan bugungi o‘g‘il-qizlarimiz ma‘naviy buloqlarimizdan bahramand bo‘lib, Yangi O‘zbekistonning chinakam bunyodkorlari bo‘lib voyaga yetishida mana shunday anjumanlarning o‘rni va ta‘siri beqiyos, albatta.

Fursatdan foydalanib, ushbu tadbir tashkilotchilari — Toshkent viloyati hokimligi, O‘zbekiston Yozuvchilar uyushmasi, “UzReport” telekanali va “Turonbank” mutasaddilariga, shoimning farzandlari va barcha muxlislariga samimiy minnatdorlik bildiraman.

Festival qatnashchilarini, uning g‘olib va sovrindorlarini, turli hududlardan kelgan yoshlarimizni yana bir bor tabriklayman.

Barchangizga sog‘liq-salomatlik, ijodiy ishlaringizda yangi muvaffaqiyatlar tilayman.

Shavkat MIRZIYOYEV,  
O‘zbekiston Respublikasi  
Prezidenti

## Hamkorlik istiqbollari



## O‘ZBEKISTON VA TURKIYA O‘RTASIDA BARCHA SOHADA ALOQALARNI RIVOJLANTIRISH BO‘YICHA MUSTAHKAM POYDEVOR YARATILMOQDA

O‘zbekistonga rasmiy tashrif bilan kelgan Turkiya Respublikasi Buyuk millat majlisi raisi Numan Kurtulmush “Dunyo” axborot agentligi uchun eksklyuziv intervyu berdi.

— So‘nggi yillarda O‘zbekiston — Turkiya munosabatlari izchil rivojlanib bormoqda. Buni har bir soha misolida ko‘rishimiz mumkin. Umuman, ikki davlat aloqalarini qanday baholaysiz?

— Avvalo, men O‘zbekistonda ekanligimdan juda xursandman. Bu zamin bizning ota yurtimizdir. Tashrifim juda samarali va taassurotlarga boy o‘tmoqda. Qator muhim uchrashuvlar o‘tkazdik. Delegatsiyamiz

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev tomonidan qabul qilinganidan juda mamnunmiz. Shuningdek, Oliy Majlis Senati va Qonunchilik palatasida bo‘lib o‘tgan muloqotlarda parlamentlararo hamkorlikni yanada mustahkamlash yuzasidan fikr almashdik. Ochiq va do‘stona suhbatlashdik.

Davomi 2-beta

## SPORT SOHASIDAGI REJALAR BO‘YICHA AXBOROT BERILDI

Prezident Shavkat Mirziyoyevga sport ta‘limini rivojlantirish va xalqaro musobaqalarni o‘tkazish rejalari bo‘yicha axborot berildi.

Mamlakatimizda sport infratuzilmasi rivojlantirilib, xalqaro talablar darajasidagi shart-sharoitlar yaratilmoqda. Shunga asosan, FIFA qarori bilan futbol bo‘yicha bu yilgi jahon chempionati yurtimizda o‘tkazilishi belgilangan. Musobaqa 14-sentabr — 6-oktabr kunlari Toshkent, Andijon va Buxoro shaharlarida tashkil etiladi. Unda dunyoning eng kuchli 24 jamoasi qatnashadi. Ishirokchi mamlakatlardan nufuzli mehmonlar, 30 mingdan ziyod muxlislar kelishi kutilmoqda.

Mutasaddilar bu borada ko‘rilayotgan tayyorgarlik ishlari, sport va madaniy tadbirlar rejalari yuzasidan axborot berdi. Chempionatni yuqori saviyada o‘tkazish uchun Bosh vazir rahbarligida tashkiliy qo‘mita tuzilishi belgilandi.

Ma‘lumki, poytaxtimizning Yashnobod tumanida Olimpiya shaharchasi barpo etilmoqda. Kelgusi yil u yerda yoshlar o‘rtasida yozgi Osiyo o‘yinlari o‘tkaziladi.

Keyinchalik undan samarali foydalanish maqsadida Olimpiya shaharchasida O‘zbekiston davlat sport akademiyasi tashkil qilinishi ko‘zda tutilgan. Ushbu muassasa huzuriga Jismoniy tarbiya va sport ilmiy-tadqiqot instituti hamda Mutaxassislar malakasini oshirish instituti ham o‘tkaziladi. Akademiya tizimida Sport tibbiyoti ilmiy-amaliy markazi, Axborot kutubxona markazi, O‘zbekiston tarixi va xorijiy tillarni o‘qitish markazi ochildi.

2025/2026-o‘quv yilidan boshlab, akademiya 3 ta bakalavr yo‘nalishi va 6 ta magistratura mutaxassisligi bo‘yicha qabul

boshlanadi. Bitiruvchi talabalarga 6 yillik trenerlik malaka sertifikatini beriladi. Olimpiya va parolimpiya kollejlardan seleksiya qilingan bitiruvchilar to‘g‘ridan-to‘g‘ri ikkinchi kursga qabul qilinadi.

Shundan kelib chiqib, mutasaddilarga kafedralar va o‘quv dasturlarini ilg‘or xorijiy tajriba asosida tashkil etish, yuqori malakali mutaxassislarni jalb qilish bo‘yicha topshiriqlar berildi.

Sport ta‘limidagi yana bir yangilik Kurash mahorat maktablari bo‘ladi.

Kurash ming yillik qadriyatimiz va milliy sportimiz. Dunyoda u bilan 30 million, O‘zbekistonda 30 ming kishi professional shug‘ullanmoqda. Havaskor yoshlar bundan ham ko‘p.

Shuning uchun har bir viloyat markazida Kurash mahorat maktablari tashkil etilishi rejalashtirilgan. Mahorat maktabida 140 nafar o‘quvchi bo‘ladi, ular 5-11-sinf bolalari orasidan tanlab olinadi.

Taqdimotda Parij olimpiadasiga ko‘rilayotgan tayyorgarlik bo‘yicha ham hisobot berildi.

Terma jamoalarimiz ushbu nufuzli musobaqaga yuqori darajada hozirlik ko‘rmoqda, chet ellarda maqsadli o‘quv-mashg‘ulotlari o‘tkazilmoqda. Sportchilarimiz futbol, suvga sakrash, kamondan o‘q otish, ayollar o‘rtasida erkin kurash bo‘yicha ilk bor olimpiadaga yo‘llanma olgani ahamiyatli. Oldinda yana yo‘llanmalarni ko‘lga kiritish, Olimpiya o‘yinlarida munosib qatnashish maqsad qilingan.

O‘ZA

## FARMATSEVIKA TARMOG‘IDAGI NATIJALAR VA LOYIHALAR TAQDIMOT QILINDI

Prezident Shavkat Mirziyoyev 23-may kuni farmatsevtika tarmog‘ida erishilayotgan natijalar va istiqbolli rejalarga oid taqdimot bilan tanishdi.

Iqtisodiyot va aholi salomatligida muhim o‘rin tutadigan bu sohaga alohida e‘tibor qaratilib, zarur huquqiy va tashkiliy sharoitlar yaratib berilmoqda. Birgina joriy yil boshida shu borada ikkita hujjat qabul qilindi. Xususan, 10-yanvardagi Prezident qaroriga muvofiq, 2024-2025-yillarda farmatsevtika tarmog‘ini rivojlantirish va investitsiya loyihalarini jadalashtirish bo‘yicha “yo‘l xaritasi” tasdiqlandi. 23-yanvarda qabul qilingan farmonda farmatsevtika sohasini tartibga solish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar belgilandi.

Sohadagi yangi loyihalar uchun 100 million dollar arzon resurs ajratildi. Bundan tashqari, “Asaka bank” tomonidan 200 million dollar jalb qilindi.

Bu imkoniyatlar natijasida o‘tgan 4 oyda 30,5 million dollarlik ikkita loyiha ishga tushirilib, 160 ta ish o‘rni yaratilgan. 1,5 trillion so‘mlik mahsulot ishlab chiqarilib, 51 million dollarlik eksport qilingan.

Lekin bu natijalar hali yetarli emas. Imkoniyatlar ham, rejalarni ham ulkan.

Xususan, bu yil 400 million dollarlik mahsulot ishlab chiqarish, eksportni 200 million dollarga yetkazish

rejalashtirilgan. 2 milliard dollarlik 147 ta loyiha boshlanib, shundan 28 tasi joriy yilda ishga tushirilishi belgilangan. 450 turdagi yangi mahsulotni mahalliylashtirish mo‘ljallangan.

Davlatimiz rahbari bu imkoniyatlardan foydalanib, mahalliy mahsulotlar bilan ichki bozor talabini qondirish darajasini oshirish zarurligini ta‘kidladi.

Ishlab chiqarishni xalqaro standartlarga o‘tkazish, narx va sifat mutanosibligini ta‘minlash masalalariga alohida e‘tibor qaratildi. Shu maqsadda sohada raqamlashtirishni bu yil 65 foizga yetkazish, keyingi yil esa to‘liq yakunlash vazifasi qo‘yildi. Bu orqali narxni kamida 20 foizga arzonlashtirish mumkinligi qayd etildi. Soha uchun malakali mutaxassislar tayyorlash bo‘yicha ko‘rsatmalar berildi.

“Tashkent Pharma Park” innovasion farmatsevtika klasteri faoliyatini jadalashtirib, 470 million dollarlik 12 ta loyihani ishga tushirish choralarini ko‘rib chiqildi.

Farmatsevtika sohasiga investorlarni jalb qilib, yangi loyihalarni ko‘paytirish bo‘yicha ham axborot berildi.

O‘ZA

## Ehtirom

## O‘Z VATANINGDEK AZIZ, O‘Z ONANGDEK TABARRUK

O‘zbekiston Qahramoni, xalq shoiri Erkin Vohidov xalqimizning sevimli shoiri sifatida qablarda mangu yashamoqda. Davlatimiz rahbarining 2016-yil 7-dekabrda “O‘zbekiston xalq shoiri Erkin Vohidov tavalludining 80 yilligini nishonlash to‘g‘risida”gi qaroriga binoan adib ijodiy merosini o‘rganish va uni yoshlarga yetkazish yo‘lida keng ko‘lamli ishlar amalga oshirib kelinayotdi.

Jumladan, kuni kecha Toshkent viloyati Bo‘stonliq tumanida el qalbidan joy olgan sevimli shoir xotirasiga bag‘ishlab “E Voh” an‘anaviy ijodiy festivali bo‘lib o‘tdi. Tadbiring shunday nomlanishining o‘z sabablari bor, albatta. Erkin Vohidovdan dastxat olgan yoki uning imzoriga ko‘zi tushgan she‘riyat muxlisi borki, adibning “E Voh” shaklida qisqa muhr bosish odati bo‘lganini yaxshi biladi.

Anjumanda davlatimiz rahbarining Festival ishtirokchilariga yo‘llagan tabrigini O‘zbekiston Respublikasi

Prezidentining matbuot kotibi Sherzod Asadov o‘qib eshittirdi.

Festivalda so‘z olgan Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Davlat tilini rivojlantirish departamenti rahbari, shoir Nodir Jonuzoq, O‘zbekiston Qahramoni, adabiyotshunos Ibrohim G‘afurov, xalq yozuvchisi Erkin A‘zam va boshqalar Erkin Vohidov ijod olami, uning yuksak insoniy fazilatlarini xususida fikr yuritdi, ibratli xotiralarni yodga olindi.

Davomi 2-beta



## Ma‘naviy yuksalish

## O‘ZBEK KINOSINING NURLI YO‘LI YOXUD SOHA ZAHMATKASHLARINING YETTI YILLIK FAOLIYATIGA BERILGAN ENG OLIY BAHO

Bundan qariyb yetti yil muqaddam — 2017-yil 3-avgust kuni yetti oy avval xalqimiz xohishirovadi bilan O‘zbekiston Prezidentligiga saylangan Shavkat Mirziyoyev hali to‘laqonli qarorgohga aylanmagan sobiq “Bahor” konsert zalining yig‘indidomga moslashtirilgan chorburchak majlisxonasida mamlakatimizning madaniyat, san‘at, adabiyot ahli vakillari bilan uchrashuv o‘tkazdi.



(Birinchi maqola)

Qariyb yetti soatga davom etgan yig‘in-mashvaratda xalqimiz ma‘naviyati, ruhiy dunyosini rostlashga, yuksaltirishga qaratilgan ne-ne mulohaza, mushohadalar o‘rtaga tushmadi. Hayajonga, hatto jubushga evrilgan fikr-u o‘ylar yangrangi izdihomda. Sanasa bir daftarni to‘ldirgulik muammo-munozaralar aytildi, kuyinib, suyunib aytili. Kuyinilgan yillar davomini tah-batah yig‘ilib, dillarni o‘rtab yurgan masalalarni ochiq-oshkor aytish imkonini sabab bo‘lsa, suyunilgan shu alamu armonlarni eshitib, unga chora topamiz, birgalashib hal etamiz, deb turgan davlat rahbarining samimiy munosabati edi.

To‘g‘ri, madaniyat, adabiyot, san‘at ahli, o‘z qavmining tabiatiga xos yo‘linda, bir yig‘ilib qolib, deya silkinib, olamshumul muammolardan to‘pichratq, jo‘n bir gapigacha aytib qolmoqqa mayl ko‘rsatdi.

Davomi 3-beta

2024-yil 24-may, 100-son



www.yuz.uz



yuz.uznews



yuz\_official



yuz.uz\_news



yuz

## Ehtirom

O'Z VATANINGDEK AZIZ,  
O'Z ONANGDEK TABARRUK

## Boshlanishi 1-betda

Mazkur nazm bayrami minglab adabiyot ixlosmandlarini bir davraga jamlagan adibning ijodi xalqimiz qalbidan mangu joy olganidan dalolatdir. Ma'lumki, atoqli adibimiz Erkin Vohidov chuqur falsafiy she'rlari, mutafakkirona fikrlari bilan emasa, o'ta samimiy, o'ta topqirona mutoyibalari bilan ham muxlislar qalbinu zabt etgan. Navbatdagi ijodiy festivalda ham ana shu oddiylik, samimiylik ruhi sezilib turdi.

— Erkin akingning betakror ijodini keng targ'ib qilish, shu orqali yoshlarning o'zbek tiliga bo'lgan mehrini oshirish, ularni vatanparvarlik ruhida tarbiyalash bugungi adabiyot bayramining maqsadidir, — deydi O'zbekiston xalq shoiri Mahmud Toir. — Salkam ming kishidan iborat ishtirokchi — kitobxon va adabiyotsevarlar, yozuvchi va shoirlar, she'riyat ixlosmandlari, yoshlar, OAV vakillari bugun adib xotirasiga hurmat bajo keltirish barobarida, yuqoridagi jihatlarni qalblariga jo qildi. Darhaqiqat, Erkin Vohidov qalami bilan qalbi uyg'un ijodkor bo'lgan. Uning har bir satri beixiyor kuyga qo'shiladigan, ko'ngillarni topib boradigan misralar edi.

— Ta'lim muassasamizda tashkil etilgan Erkin Vohidov muzeyi sevimli maskanlarimizdan, — deydi Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zbekiston Milliy universiteti talabasi, festival ishtirokchisi Davlatoy Murodova. — Adiblar xiyobonidagi shoir haykali universitetimizga biriktirilgan. Haykal poyida va shoir nomi bilan ataladigan muzeyda adabiy-badiiy tadbirlar, muhojiralar o'tkazib turiladi. Bugungi adabiyot bayrami esa o'zgacha ruhda tashkil etilgan bilan uzoq vaqt xotiramizda saqlanib qoladi.



**Festival Erkin Vohidovning she'rlari asosida bahr-u bayt, dostonlar, she'r va g'azallar aytilgan nazm kechasi, uning asarlari asosida yaratilgan qo'shiqlardan iborat konsert dasturi, shoirning shaxmat o'ynagan ulfatlari bilan "Shaxmat chellenji" kabi qiziqarli va mazmunli tadbirlarni qamrab oldi.**

Ma'lumki, Erkin Vohidov tilimizning chinakam jonkuyari edi. Maqolalarining birida shunday jumalarni o'qiydiz: "O'z ona tilini sevmagan, til zamirida yotgan tarixni bilmagan, qiziqmagan odam barkamol sanalmas. U kim, qaysi yurt va qaysi millatga mansub ekanidan, o'z ona tilining boyu kambag'alligi, mayin yo dag'alligidan qat'i nazar.

O'z tiling o'z vataningdek aziz, o'z onangdek tabarruk".

Festival Erkin Vohidovning she'rlari asosida bahr-u bayt, dostonlar, she'r va g'azallar aytilgan nazm kechasi, uning asarlari asosida yaratilgan qo'shiqlardan iborat konsert dasturi, shoirning shaxmat o'ynagan ulfatlari bilan "Shaxmat chellenji" kabi qiziqarli va mazmunli tadbirlarni qamrab oldi.

Teatr kechasida esa Erkin Vohidov qalamiga mansub "Oltin devor", "Ruhlar isyoni", "Matmusa" va boshqa hajviy asarlardan parchalar namoyish etildi. Davlatimiz rahbari tomonidan ilgari surilgan "Yashil makon" umummilliy loyihasi doirasida shu yerda barpo etilgan Erkin Vohidov bog'iga anjuman ishtirokchilari, ustoz ijodkorlar tomonidan dastlabki nihollar ekildi.

**Nodir MAHMUDOV,**  
"Yangi O'zbekiston" muxbiri

## Tadbir

TOSHKENTDA SHHTGA A'ZO  
DAVLATLAR OLIY SUDLARI  
RAISLARI UCHRASHDI

Poytaxtimizda O'zbekiston raisligida Shanxay hamkorlik tashkilotiga a'zo davlatlar Oliy sudlari raislarining o'n to'qqizinchi yig'ilishi bo'lib o'tdi.

O'zbekiston Oliy sudi raisi Baxtiyor Islomov raisligida bo'lib o'tgan tadbirida SHHTga a'zo davlatlar Oliy sudlari raislari, shuningdek, SHHT huzuridagi kuzatuvchi mamlakat — Belarus Oliy sudi, SHHT Kotibiyati va Mintaqaviy aksiterror tuzilmasi ijroiya qo'mitasi vakillari ishtirok etdi.

Davlatimiz rahbarining yig'ilish ishtirokchilariga yo'llagan murojaatini Prezidentimizning huquqni muhofaza qiluvchi va nazorat organlari faoliyatini muvofiqlashtirish masalalari bo'yicha maslahatchisi Doniyor Qodirov o'qib eshittirdi.

SHHT umumiy manfaatlarini himoya qilishning samarali tizimidir. Yaxshi

alohida e'tibor qaratildi. Xususan, huquqni qo'llash, qonunchilikni takomillashtirish va sudlar faoliyatiga doir boshqa muhim masalalar yuzasidan faol ma'lumotlar almashinuvi yo'lga qo'yildi. Bu jarayon tashriflar, shuningdek, ko'p tomonlama hamkorlikning barcha yo'nalishlarini qamrab olgan 40 dan ortiq yirik tadbirida ishtirok etish orqali amalga oshirildi.

Tadbirida SHHTga a'zo davlatlar Oliy sudlarining qonun ustuvorligi, fuqarolar huquqlari va qonuniy manfaatlarini ta'minlash borasidagi hamkorligini yanada faollashtirishga qaratilgan qator dolzarb masalalar ko'rib chiqildi.

**Oliy sudlar raislarining birgalikdagi sa'y-harakatlari va tashabbuslari xalqaro maydonda SHHTning obro'si va global mavqeini yanada oshirishga ham xizmat qiladi. Zero, nufuzli tuzilma mintaqaviy va global siyosatni shakllantirishning mexanizmi sifatida Yevroosiyo qit'asining xavfsizligi va barqaror rivojlanishini ta'minlashda muhim ahamiyatga ega bo'lib bormoqda.**

qo'shnichilik va do'stlikni mustahkamlash, mintaqada tinchlik va barqarorlikni ta'minlashda ushbu nufuzli tuzilma muhim rol o'ynamoqda.

SHHT tashkil etilganidan buyon unga a'zo davlatlar o'rtasida o'zaro hurmat va tushunish, yuqori darajadagi ishonch va birgalikda qarorlar qabul qilish ruhi shakllandi.

Oliy sud organlari o'rtasidagi o'zaro manfaatli hamkorlik umumiy maqsadga erishish, ya'ni SHHT makonida qonun ustuvorligini ta'minlashning muhim omilidir.

O'zbekiston raisligi davrida odil sudlov samaradorligini oshirish borasidagi masalalar qatorida sud-huquq tizimida qonun ustuvorligini ta'minlash bo'yicha islohotlarga

Odami savdosiga qarshi kurashish dunyo hamjamiyati, shu jumladan, SHHT davlatlari uchun doim dolzarb muammo ekanini inobatga olinib, millat va chegara bilmas bu illat bilan bog'liq jinoyat ishlarini ko'rib chiqish amaliyoti muhokama qilindi. Bu borada o'zaro tajriba almashinuvi tizimli yo'lga qo'yish ahamiyatli ekanini alohida qayd etildi.

Shuningdek, fuqarolik sudlovi sohasida mediatsiya institutidan keng foydalanish masalasida atroficha fikr almashildi. Nizoni hal etish va tarafar uchun o'zaro ma'qul keluvchi qaror qabul qilishga erishishning asosiy mexanizmlaridan biri bo'lgan mediatsiyani yanada chuqur o'rganish va mohiyatini anglash umummanfaatli ekanini e'tirof etildi.

Yig'ilish ishtirokchilari mulk huquqi himoyasi va xususiy mulk daxlsizligini odil sudlov orqali ta'minlash choralarini ishlab chiqib, amalga oshirish masalasini ham ko'rdi. Davlat organlari bilan o'zaro munosabatlarda fuqarolar va tadbirkorlar huquqlari, qonuniy manfaatlarining samarali himoyasini ta'minlash hamda kafolatlarini kuchaytirish borasida katta ahamiyat kasb etuvchi ma'muriy odil sudlovni shakllantirish va rivojlantirish istiqbollarga to'xtalib o'tildi.

Sud jarayonlarida yangi texnologiyalarni qo'llash orqali odil sudlovni raqamlashtirish istiqbollari masalasi ham majlis kun tartibidan o'rindi. Bu borada SHHTga a'zo mamlakatlar Oliy sudlari tomonidan kelgusida ilg'or tajriba va odil sudlovni amalga oshirishda axborot-kommunikatsiya texnologiyalari hamda sun'iy intellektidan foydalanish bo'yicha tajriba almashishga tayyorligi ta'kidlandi.

Oliy sudlar raislarining birgalikdagi sa'y-harakatlari va tashabbuslari xalqaro maydonda SHHTning obro'si va global mavqeini yanada oshirishga ham xizmat qiladi. Zero, nufuzli tuzilma mintaqaviy va global siyosatni shakllantirishning mexanizmi sifatida Yevroosiyo qit'asining xavfsizligi va barqaror rivojlanishini ta'minlashda muhim ahamiyatga ega bo'lib bormoqda.

Tomonlar SHHTga a'zo davlatlar Oliy sudlari o'rtasidagi hamkorlikni rivojlantirish ishonch, do'stlik va yaqin qo'shnichilik, o'zaro anglashuv, SHHT Xartiyasi, SHHTga a'zo davlatlarning uzoq muddatli istiqbolga mo'ljallangan yaxshi qo'shnichilik, do'stligi va hamkorligi to'g'risidagi shartnoma hamda tashkilotni 2025-yilgacha rivojlantirish strategiyasiga muvofiq, mintaqada tinchlik va xavfsizlikni ta'minlash tamoyillari asosida amalga oshirilayotganini qayd etdi.

Yig'ilish yakuni bo'yicha SHHTga a'zo davlatlar sud hokimiyatining oliy organlari hamkorligi istiqbollari to'g'risida Qo'shma bayonot imzolandi.

Yakuniy hujjatda kun tartibidagi masalalar yuzasidan hamda SHHTga a'zo davlatlar Oliy sudlari raislarining 20-yig'ilishini 2025-yilda Xitoyda o'tkazish to'g'risida qaror qabul qilindi.

**Lutfulla SUVONOV,**  
"Yangi O'zbekiston" muxbiri

## Hamkorlik istiqbollari

O'ZBEKISTON VA TURKIYA O'RTASIDA BARCHA SOHADA ALOQALARNI  
RIVOJLANTIRISH BO'YICHA MUSTAHKAM POYDEVOR YARATILMOQDA

## Boshlanishi 1-betda

Muzokalarimiz ishchanlik ruhida o'tdi, deyishga barcha asoslarimiz bor. Zotan, O'zbekiston va Turkiya o'rtasida barcha sohalarida mamlakatlarimiz taraqqiyoti va xalqlarimiz farovonligini oshirishga qaratilgan yaqin do'stona munosabatlar o'rnatilgan. Bugungi kunda aloqalarimizni qardoshlikdan ham yuqori, deya olamiz, chunki ko'plab masalalarda hamkorlik.

Prezidentlar Rejep Tayyip Erdog'an va Shavkat Mirziyoyev o'rtasida qardoshlarga xos va yaqin do'stlik rishtalari o'rnatilgan. Ularning o'zaro muloqot va uchrashuvlarida mavjud masalalar juda oson yechim topmoqda.

Joriy yil iyun oyida Anqarada oliy darajadagi O'zbekiston — Turkiya strategik hamkorlik kengashi yig'ilishi bo'lib o'tishi rejalashtirilgan. Ushbu yig'ilishda shu vaqtga qadar imzolangan kelishuvlar va ularning ijrosi ko'rib chiqiladi. Shuningdek, istiqboldagi ikki tomonlama maqsad va vazifalar bayon qilinadi. Hozirgi kunda davlatlarimiz o'rtasidagi o'zaro savdo aylanmasi 3 milliard dollardan ko'proqni tashkil qilayapti. Yaqin istiqbolda ushbu ko'rsatkichni 5 milliard dollarga, kelajakda esa 10 milliard dollarga yetkazish rejalashtirilgan.

O'zaro savdo munosabatlardan tashqari, madaniyat, turizm va boshqa ko'plab



sohalarida ham hamkorlikni yangi bosqichga olib chiqish kun tartibida turibdi. O'zbekiston Oliy Majlisi Senati va Qonunchilik palatasi rahbariyati bilan kechgan muloqotlarda ham parlament diplomatiyasining barcha imkoniyatlaridan foydalangan holda, ikki davlat hukumatlari kun tartibiga qanday hissa qo'shishimiz mumkinligiga alohida e'tibor qaratdik. Yakunda O'zbekiston Oliy Majlisi Senati, Qonunchilik palatasi va Turkiya Respublikasi Buyuk millat majlisi o'zaro birgalikda do'stlik guruhlari, parlamentlararo maxsus guruhlarning ishini yanada jadallashtirish va boshqa masalalarni

kelishib oldik. Yaqinda O'zbekiston va Turkiya parlamentlari o'rtasida yangilangan hamkorlik shartnomasini imzolaymiz. Turkiya va O'zbekiston parlamentlari o'rtasidagi aloqalarga oid hujjat 2017-yilda qabul qilingan. Ushbu hujjatni ham bugungi kun talablariga javob beradigan darajada boyitish zarurati paydo bo'lmoqda.

— Nima deb o'ylaysiz, mushtarak tarix va madaniy merosga ega O'zbekiston va Turkiya bugungi zamonaviy munosabatlarda qaysi sohalarni ustuvor yo'nalishlar, deb hisoblaydiz?

— O'zbek va turk xalqlarini qadimiy rishtalar o'zaro bog'lab turadi. Xususan, O'zbekiston qadim tarixiga ega. Prezident Shavkat Mirziyoyevning Uchinchi Renessans bo'yicha tashabbuslarini katta qiziqish va diqqat bilan kuzatib boryapmiz. Bu yerdagi tamaddun ikki qanotli qushga o'xshaydi. Jumladan, O'zbekiston zamini islom sivilizatsiyasi markazi hisoblanadi. Ikkinchi tomondan esa O'zbekiston Forobiy, Ibn Sino, Beruniy, Farg'oniy, Xorazmiy, Ali Qushchi va boshqa yetuk olimlarni yetishtirgan ulkan ilm markazi sifatida shuhrat qozongan yurt sanaladi. Imom Termiziy, Imom Buxoriy, Bahouddin Naqshband va boshqa ko'plab islom olamida katta mavqega ega allomalar

qoldirgan ma'naviy xazina bugungi kunga qadar butun musulmon olamida keng o'rganilmoqda. Ajdodlaringiz har sohada, ya'ni dunyoviy va diniy ilmlarda ham nihoyatda yuksak darajaga erishgan.

Zotan, o'tmishda Movarounnahr madaniyatini buyuk qilgan, nihoyatda nodir asarlar meros qoldirilishini ta'minlagan diyor bo'lishi ham bu yurtning alohida jihati. Prezident Shavkat Mirziyoyev janoblarning rahnamoligida O'zbekiston qaytadan bu madaniy merosga erishmoqda.

Dunyoning hozirgi holatiga qaraydigan bo'lsak, bugun yangi ovoza, yangi nafasga ehtiyoj bor. Tarixi, ildizi, tili va dini mushtarak bo'lgan Turkiya va O'zbekiston mazkur tamoyillarni qabul qilgan holda birgalikda yuqori natijalarga erishishga ishonaman. O'zbekistonga tashrifim davomida bunga guvoh bo'lishdan juda mamnunman.

— Turkiya Respublikasi Buyuk millat majlisi tuzilganiga 100 yildan oshdi. Shu o'rinda, Turkiya Respublikasi Buyuk millat majlisi va O'zbekiston Oliy Majlisi o'rtasidagi aloqalarga to'xtalsak. Bugungi parlamentlararo hamkorlik darajasini qanday baholaysiz?

— Bir asrlik o'tmishimizda qanchadan-qancha ajoyib kunlar, ajoyib yutuqlarni

**DUNYONING HOZIRGI HOLATIGA QARAYDIGAN BO'LSAK, BUGUN YANGI OVOZA, YANGI NAFASGA EHTIYOJ BOR. TARIXI, ILDIZI, TILI VA DINI MUSHTARAK BO'LGAN TURKIYA VA O'ZBEKISTON MAZKUR TAMOYILLARNI QABUL QILGAN HOLDA BIRGALIKDA YUQORI NATIJALARGA ERISHISHGA ISHONAMAN. O'ZBEKISTONGA TASHRIFIM DAVOMIDA BUNGA GUVOH BO'LISHDAN JUDA MAMNUNMAN.**

boshdan o'tkazdik. Yana qanchadan-qancha sinovli kunlar, yetishmovchiliklar, taqchilliklarni ko'rdik. Bularning barchasidan muvaffaqiyatli o'tib, bugungi kunda Turkiya dunyoda o'z obro'si va mavqega ega mamlakatga aylandi. Turkiya Respublikasi Buyuk millat majlisi sifatida biz Turkiyada yangi, fuqaroviy konstitutsiya ishlab chiqilishi shart ekaniga ishonamiz. Bu borada Turkiyaning katta tajribasi bor. Ushbu tajribani O'zbekiston tomoni bilan baham ko'rishga tayyormiz. Parlamentlar juda kuchli bo'lishi kerak. Barcha Turkiya davlatlari bilan hamkorlikni rivojlantirish bosh maqsadimizdir.

— Ikki davlat rahbarlari savdo-iqtisodiy hamkorlikni chuqurlashtirishga alohida e'tibor qaratmoqda. Parlamentlar ikki davlat o'rtasidagi investitsiyaviy muhitni

yaxshilash va savdoni osonlashtirish kabi sohalarga qanday hissa qo'shmoqda?

— Ushbu sohada juda katta imkoniyatlar mavjud. Yuqorida aytib o'tilganidek, ikki davlat rahbarlari o'zaro savdo hajmini yaqin kelajakda 5 milliard dollarga, keyinchalik esa 10 milliard dollarga yetkazish vazifasini qo'yg'an. Bu borada, avvalo, huquqiy asoslarni takomillashtirishimiz, kerak bo'lsa, biznes muhitini yaxshilash uchun yangi huquqiy hujjatlarni ishlab chiqishimiz zarur. Aytmoqchimaniki, ushbu sohadagi aloqalarni har tomonlama rivojlantirish bo'yicha mustahkam poydevor yaratilmoqda.

Fursatdan foydalanib, butun O'zbekiston xalqiga, o'zbek qardoshlarimizga o'z zimmang cheksiz hurmatimni izhor qilaman.

"Dunyo" AA

2017-yilga kelib, vaziyat tubdan o'zgardi. Badiiy, hujjatli va animatsiya filmlari yaratish hajmi bir necha barobar oshdi, rejissyorlar, ssenariychilar, operator, rassom va hokazo kino mutaxassislari yana o'z kasbi va ijod dargohlariga qaytdi, yangi, yosh iste'dodlar bo'y ko'rsatdi. "O'zbekfilm" kinostudiyasining mog'or bosgan rutubatli qiyofasi yo'qotilib, tamomila rekonstruksiya qilinib, to'liq ta'mirlandi, zamonaviy texnik jihozlanish uchun katta mablag' ajratilib, jozibador gavjum dargohga aylantirildi.

MA'NAVİY YUKSALISH



O'ZBEK KINOSINING NURLI YO'LI

yoxud soha zahmatkashlarining yetti yillik faoliyatiga berilgan eng oliy baho



Shuhrat RIZAYEV, O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan yoshlar murabbiysi, professor

Boshlanishi 1-betda

Baraka topgur yurt rahbari sabru toqat bilan, hech mardumi kemay, yuksak odob va madaniyat bilan barchani eshitdi, so'zlarning ma'no-mazmuniga qarab barchasiga zarur munosabat bildirib turdi. E-he, bu "nafosat ahli"ning, jaydarcha aytganda, obdon "biti to'kildi". Kamina qo'lmda yetti varaq ijtimoiy-ma'naviy dardnoma bilan izdihonga borib edim, chekkaroqda turganim sababli yoki jur'atsizlik, andisha uyulidammi, navbat ololmadim, damim ichimda, daryo-daryo savol-u so'roqlar, fikr-u mulohaza, mushohadalar ich-etimni tinab, ong-u tafakkurimga g'alayon solib, uyga qaytdim... Qani endi shu tobdad dardkash topilsa-yu, ichimdagi bari safroddan xalos bo'lsam. Kun tunga ulangan o'sha fursatda kimni o'rindan turg'azib, meni eshit, deysan. Xullas, hamdamim, g'amsusorim yana qalamu qog'oz bo'lib, to sahar bori o'y-fikrim, olov-u otashimni oq qog'ozga soldim — "Prezidentga maktab" yozdim. Jonivor o'n yetti betlik bari bitigimni qosh-ko'zini rasolab, tahriru tartiblab, matbuotga berdim. "Kitob dunyosi" gazetasida bir sahifadan ortiq joy egallab, "maktab" chop etildi.

Maktabimni kenja qizim Madinaxonning "Prezidentimiz qo'llarida sehrli tashabbus bor sehrgarga o'xshaydilar. Qayerga borsalar, o'sha yer gullab, yashnab ketayapti", degan so'zlar bilan boshlagan edim. Mana, oradan hash-pash deguncha yetti yil o'tib, o'sha qizim bizga Maryamxon ismli go'zal qog'irchoqdek qizcha taqdim etib, endi kunlarimiz shu go'dak emak bilan qizg'in, safoli. Boshi omon bo'lsin nabirajonimning. Ammo bu daromad gaplardan muvofiq bo'lak.

Gap shundaki, o'sha nabiraginamning oshu ovqati, yotar-turari, kiyim-kechagi bilan kafitekd telefonidagi "Cocomelon" nomi bilan butun dunyoga tarqalgan go'dakbop yo'riqning serialiga bog'lanib qolgan. Yo'tishni-da, yebichish, yurish-turish, atrof-javonbi bilan mulotot-munosabagacha borini o'rgatayotgan o'sha "tarbiyachi-muallim". "Hoy qiz, nima qilyapsan, qachongacha bolachani telefon bilan boqib, telefon bilan tarbiya etasan?" desam, "Hozir hamma shunday qilyapti, axir bu yaxshi-ku, odob-axloq, yon-atrofga, ota-ona, aka-uka, do'stu yorga, tabiatu turmush madaniyatiga insoniy munosabatni o'rgatayapti-ku", deydi. Darhaqiqat, surishtirsam, yosh onalarning deyarli barchasi bolachalarini shu yo'sin "tarbiyalay" kelayotgan ekan. To'g'ri, bu serial tili, dini, irqi va hokazo farqlaridan qat'i nazar, nelamidir o'rgatayapti, har qanday pandu o'g'it, so'z-tovushdan ko'ra, ko'z ko'rgichi, vizual

vosita orqali ko'rsatayapti, ammo u ajnabiy turish-turmush, tasavvur-tarbiyani singdiriyapti. Ona tilidagi alla-ohang, bobo-buvilardan keladigan an'ana-odatlar, milliy odob-axloq — bari bir chekkada qisqinib turgandek. Bir kuni qo'shim kula-kula gapirib ber-yapti: "Qarangki, ikki yoshli nabiram na ona, na non-nanna demay, na ota, doda demay, birdaniga tili chiqib, inglizcha gapirib ketsa deng. Bidirlab gapirib yotibdi inglizchada, yo qudratingdan! Ana sizga zamonaviy tarbiya". Yoqa ushlanishdan o'zga bir chora so'z aytolmaysan va amali bir so'roq tomog'ingga tiqilib kelaveradi: nahotki... nahotki o'zimiz, o'zligimiz, "men"imiz zavol topib, "dunyo odami"ga aylanib borayotgan bo'lsak?! Bu qanday kuch, bu qanday qudratki, bori insoniyatni yakrang tushga hech bir zo'rlamay, majburlamay, istibodu mustabidlikka tortmay, bajonu dil o'z xohishu istagiga ko'ra, bita til, tushuncha, tasavvur olamiga fuqaro qilib qo'ysa?! Hamma bir xil fikrlasa, bir xil yursa, tursa, kiyinsa, muomalamunosabab qilsa — demak, inson individ emas, bir toifali mexanizm-mashinaga aylanib borsam? Qaytadan g'ildirak kashf etmoqchi emasman. Ammo har kishining muayyan hodisalar haqida ne bir ma'lumotga, axborotga egaligi bilan voqeani o'z boshidan kechirgani, hissiyot dunyosidan o'tkazgani, hayotiga kirigani o'rnatida juda katta farq bor ekan. Hissiyotlarini harakatga keltingan hodisa barchasidan kuchliroq, og'irroq, og'riqliroq bo'lar ekan. Yo, alhazar!

Qo'shimdan so'radim: "Nima, uyd inglizcha so'zlashasizlarmi?". "Qayda, otasidan boshqa birov bilmaydi inglizchani. Nabiram tug'ilidiki, telefon-u televizordagi era-yu kech faqat yutubni ko'radi. Insonning qulog'iga mung'ak palla qaysi so'z, ohang kirsam, ong-tushuncha shunga muvofiqlashar ekan-da!", javob beradi u. Ochig'i, hamsoyaning kulib, shunchaki xursand bo'lib aytmagan gapimni g'oyat xavotirga soldi. Axir bu dahshat-ku, o'zbek bolasining tili inglizcha chiqsa. Bir paytlar "kulturmuy" o'zbeklarning tili o'rischa chiqardi, endi til zabonimiz ummon ortiga o'tyaptimi?! Jaydarcha aytganda, yutub ("YouTube") kelayak nasllarni yutub yuboradimi?! Axir bu xavotirga solmaydmi "o'zbekim", "millatim", degan so'z-tushunchalar mamlakatimizning ustuvor siyosati, maslak-maqasadi bo'lib turgan bir paytda... Nima qilmoq kerak, ey, mardumi g'afat?! Ha, nima qilmoq kerak? Kim aybdorligi-ku ma'lum, ammo buni kavlatirishdan naf yo'q. Demak, chora istamoq, vaqtda hushyor tortmoq zarur. Xo'sh, chora nima, u qayrda, degan savol bugun ko'plarni qiynayotgani aniq. Bu savolni va unga malham chorani davlat rahbari yetti yildirki qayta-qayta aytib, uqtirib, izlab, istab aytib kelyapti. Shu niyatda Prezidentimiz joriy yil 16-may kuni o'zbek kinochilari huzuriga tashrif buyurdi va rasmiy taomil — protokolga ko'ra, bir soatga mo'ljallangan tashrif-uchrashuv rosa uch soat davom etdi.

Bu Prezidentimizning kinematografiya muassasalariga ikkinchi tashrif. Dastlab pandemiya avjlangan 2020-yil 20-noyabrda to'liq rekonstruksiya qilinib, qayta ta'mirlangan "O'zbekfilm" studiyasidagi inshootlar bilan tanishib, bir guruh kinoijodkorlar bilan dildan suhbat qurgan edi. Umr oqar suv — hash-pash deguncha uch yarim yil o'tib, yana kino sarhadlarida uchrashdik. Bu safar ilgari "Panorama" nomi bilan mashhur, hozir "Kinochilar uyi" deb nomlanuvchi muhtasham saroydagi Yangi O'zbekiston kinosan'ati



muzeyida kutub oldik aziz mehmonimizni. Oliy mehmonimizni ostonada kutib olib, muzey ekspozitsiyasi bilan tanishtirish sharafligini agentlik direktori va kaminaning zimmasiga tushdi. Prezidentimiz bilan bu lavozimga saylanganlarga qadar ham, keyingi yetti yillik qizg'in faoliyat davomida ham ko'p bora uchrashganmiz, albatta. Lekin avval izdihomlar ishtirokchisi yoki katta-kichik davralarda suhbatdoshlik sharafiga noyil bo'lgan esak-da, bu galgi besovita diydorlashuv har qachongidagi ko'ra, hayajonliroq, intiqroq va mas'uliyatliroq bo'ldi. Sababi, biz mamlakat rahbariga yetti yillik faoliyatimiz bo'yicha hisobdor bo'lib, muzey ekspozitsiyasi bilan tanishtiruv asnosida O'zbekiston kinematografiyasida amalga oshirilgan barcha yo'nalishdagi ishlar yuzasidan ma'lumot berishimiz, suratga olingan filmlar, rejalar, iste'dodlarni yuzaga chiqarish, kadrlar tayyorlash, milliy kinomizni targ'ib etish, O'zbekiston bo'yab, uning har bir mahallasi,



aholi-fuqarosini jonli tarix va kechmishlar bilan qamrab olib, ularning ma'naviyati, ruhiy dunyosi, vatanparvarlik hissiyotlarini tarbiyalashga xizmat qilishimiz, xalqaro maydonga chiqishimiz, Toshkent xalqaro kinofestivalini tiklash borasida qanday amaliy ishlar qilganimizni ko'rsatib berishimiz kerak edi.

O'zbekiston Prezidenti va Vazirlar Mahkamasining kichik sohasiga doir yetti yil oralg'ida qabul qilingan, nihoyatda ko'lamdor vazifalarni belgilab bergan o'ndan ortiq farmon, qaror va farmoyishi ijrosi ta'minlanishini aniq amaliy ishlar vositasida yaqqol namoyon etishimiz, ayni paytda buni muzey talablariga muvofiq, zamonaviy, go'zal, jozibador badiiy ko'rimga tasvir etishimiz zarur edi. Bir necha oy davomida tinimsiz izlanishlar, yangi-yangi dizayn takliflari, qurish, yasash, buzish, yana qaytadan shakllantirish muayyan ekspozitsiya qismlarini, tunu kun ish, yumush samarasini berib, maqtansa, g'ururlansa arziguulik ma'rifiy-badiiy bir koshona — zamonaviy osori atiq buniyod etildi. Nokamtarlik bo'lib tuyulmisan, g'ururlanishimiz boisi, avvalo, Prezidentimizning bu dargohga va yetti yillik faoliyatimizga bergan oliy bahosi bo'ldi: "2017-yilgacha ham kino bo'lganni O'zbekistonda!". Albatta, bir oz lutf bilan muayyan qoniqish ila berilgan bu ritorik savoldan munosabatni aynish

qiyin emas. Munosabatki, kinematografiya sarhadlarida keyingi yetti yillikda kechgan islohot, o'zgarish va yangilanishlardan rozilik, kechgan jarayonlarni ijobiy ma'noda qabul qilish edi bu. Garchi yangi buniyod etilgan muzey ekspozitsiyasining bir qismi to'liq tarix, ya'ni O'zbekistonda kinematografiyaning shakllanishi va rivojlanishi bilan bog'liq qariyb yuz yillik tarix jonli lavhalar, noyob hujjatlar, ashvoviy dalillar vositasida ko'rsatib berilgan va shu davrning eng mashhur mumtoz namunalarini hisoblangan "Tohir va Zuhra" (1945), "Alisher Navoiy" (1947), "Mahallada duv-duv gap" (1960), "O'tkan kunlar" (1969), "Alibobo va qirq qarochi" (1980) hamda "Sevishganlar" (1969) filmlaridan asosiy qahramonlarning bor bo'yi siymolari va filmlarning xarakterli lavhalari aks etgan interyerlar eng zamonaviy vizual usullarda taqdim etilgan bo'lsa-da.

Shu o'rinda ayrim tarixiy xotiralar o'rtaga tushdiki, bularni ham aytmasa bo'lmas. Shavkat Mirziyoyev o'tgan asr 70-80-yillarda endigina Toshkent irrigatsiya va qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalash muhandislar institutini bitirib, qizg'in ish boshlagan, jamoatchilik faoliyati ham avjlanayotgan pallalar mazkur kino saroyida o'tgan siyosiy bir anjumanda nutq so'zlab, o'sha kezlarda O'zbekistomni boshqargan Sharof Rashidovning nazariga tushganini xotirladi. Kamina ham bundan yigirma yillar avval Prezidentimizning Vazirlar Mahkamasida Bosh vazir sifatida faoliyat boshlagan davrlarini yodga oldim.

Aynan shu paytda xalqimiz "Panorama" deb suygan bu kino maskani xususiy lashtirish ro'yxatiga tushgan, respublikadagi yuzlab kinoteatrlar kabi urli tijoriy tadbirkorlar, hatto qog'ozda bor-u, amalda yo'q xorijiy firmalar tasarrufiga o'tkazilayotgan edi. Poytaxtning qog'ozdagi barcha gavjum binoga tungi klub va hatto bir chekkasida hammom — sauna qurish rejalarini bilan ayrim shubhali biznesmenlar katta lavozimlardagi amaldorlar ko'magida o'z niyatlariga erishay, deb turgan vaziyat edi.

Yangi Bosh vazir Shavkat Mirziyoyev ayni shu vaziyatda qat'iyat va iroda ko'rsatib, "yo'q" deb ayta oldi, kinosaroyini ma'naviyat o'chog'i, xalqning madaniy maskani sifatida saqlab qoldi. Binoning 1977-yildayoq "zamonaviy me'morlik namunasi" sifatida madaniy obidalar ro'yxatiga kiritilganini asos keltirib, kino saroyi sotuvdan to'xtatib qoldim...

Yangi O'zbekiston kino san'ati muzeyining asosiy ekspozitsiyalari to'liq yangi davrim filmlariga bag'ishlangan. Albatta, o'tgan yetti yillik davr bilan qariyb yuz yillik tarixning nisbati tomoshabinda savol uyg'otishi tabiiy. Gap shundaki, o'zbek kino san'atining milliy san'at sifatida mazmun va miqvos kashf etish ko'lami keyingi yetti yilda bo'lgan hodisa, desak sira mubolag'a emas. Shunga ko'ra, bu yillarning mazmun-mohiyati va amalga oshirilgan barcha islohot o'zgarishlari, yangilanishlari yuz yillik kinomiz kechmishlaridan salmoqliroq, deysishga asosu dalillarimiz bisyor.

Birgina filmlar suratga olish hajmlarini qiyoslab ko'raylik. Sobiq sovetlar davrida "O'zbekfilm"ga oltitagina badiiy film olishga mablag' ajratilardi. Shunda ham bu raqamning yarmi mahalliy rejissyorlar uchun bo'lsa, teng yarmi markaz — Moskva kinorejissyor va ssenariychilari ixtiyorida edi. "O'zbekfilm"da suratga olingan "Samolyotlar qo'nmoldi" (1962), "107 instruksiya" bo'yicha

to'ntarish" (1982), "Chuqurlikdan reportaj" (1984), "Leytenant Nekrasovning aybi" (1985), "Qo'pol qo'nish" (1985) kabi qator filmlar na o'zbekka, na O'zbekistonga mutlaqo aloqasiz, asosan "katta og'a" ssenariychilari, rejissyorlari va aktyorlaridan iborat guruhlari tomonidan ishlangan edi.

Mustaqillik yillariga kelib, kino sohasi dastlabki davrlarda deyarli unutildi. Goh u tashkilot, goh bu tashkilot-vazirlik tasarrufiga o'tib, chetga surildi. Keyinroq u aksiyadorlar jamiyati sifatida qayta tashkil etildi, ammo filmlar yaratishdan ko'ra, kinoteatr, kinoqurilmalari va boshqa kinomulkami sotishga zo'r berildi. Shu tariqa goh u, goh bu qirg'oqlarga urilib, kinoteatroq rosmaga qanot yozolmay, tayin rivoj topmay yashadi. Yuzlab kinoijodkorlar sohadan mutlaq chiqib ketdi. Tarmoqni qayta tiklashga urinishlar rag'bat va munosabatning tizimli yo'lga qo'yilmagani uchun nochor ahvolda qolaverdi.

2017-yilga kelib, vaziyat tubdan o'zgardi. Badiiy, hujjatli va animatsiya filmlari yaratish hajmi bir necha barobar oshdi, rejissyorlar, ssenariychilar, operator, rassom va hokazo kino mutaxassislari yana o'z kasbi va ijod dargohlariga qaytdi, yangi, yosh iste'dodlar bo'y ko'rsatdi, "O'zbekfilm" kinostudiyasining mog'or bosgan rutubatli qiyofasi yo'qotilib, tamomila rekonstruksiya qilinib, to'liq ta'mirlandi, zamonaviy texnik jihozlanish uchun katta mablag' ajratilib, jozibador gavjum dargohga aylantirildi.

Ayniqsa, 2020-yil 20-noyabrda Prezidentimizning "O'zbekfilm" kinostudiyasiga tashrif tili, uyg'ongan o'lik go'shani yanada jonlantirib, endilikda tamomila chiroy va obod qiyofa kasb etgan muhtasham hududga aylantirib yubordi. 2017-yilgacha "O'zbekfilm" kanadek yopishib, qonini so'rgan tijoriy firma, do'kon,



qurilish ashyolari ishlab chiqaruvchi katta-kichik ijador korxonalaridan tozalanib, faqat kinosahoga yo'naltirilgan yumushlar bilan mashg'ul yirik muassasaga aylandi. 2021-yilga kelib, Prezidentimizning Toshkent xalqaro kinofestivalini qayta tiklash to'g'risidagi qaroridan so'ng bu maskan azim poytaxtning diltortar go'shasiga aylandi.

Tabiiyki, bu go'shadagi hozir faoliyat yuritayotgan barcha xodimlar, umuman, sohadagi kinoijodkoru texnik kasb vakillari muntazam ish va ijod bilan mashg'ul. Shuning natijasi o'laroq, mamlakatimiz rahbari kinoteatroq oldiga qo'yayotgan vazifalar — tarixiy va zamonaviy mavzuda filmlar yaratish, kino vositasida xalqimiz, ayniqsa, yoshlarning ongi va qalbiga yetib boradigan milliy qadriyatlar, bezoval ana'alar, ijod, yaratish, bunyodkorlik zavqi, yurt ishiga, hayotiga daxldorlik tuyg'ularini tarbiyalash, vatan va vatanparvarlik hissiyotini o'stirish, xalq, millat, oila, ota-ona, yaqinlar oldidagi burch tuyg'usini his etishga talabgina ishlar amalga oshirildi, yuzlarcha yangi badiiy, hujjatli, animatsiya filmlari ekran yuzini ko'rtdi, tanlov va ko'rik festivallari o'tkazildi.

Bu yaraqtillar kinokarvon shaklida bepoyon yuritmizning shaharu qishloqlari, mahallalarga yetkazildi, suyumli va aytimli san'at ustalari, aktyor-aktrissalar, yoshu faxriy ijodkorlarning beistino hammalari joylarda xalq bilan uchrashib, hammafars bo'lib yuribdi. Yurt kamoli, yuz berayotgan o'zgarishlarni kinoasarlarda aks ettirish borasidagi izlanishlaridan naql qilib, fuqarolarimiz qalbiga egzulik, sadoqat, bunyodkorlik hissiyotlarini singdirib kelyapti. Shukrki, xalqimiz san'atkorlarini suyadi, e'zozlaydi, so'zini yurakka oladi. Ularni jonli

ko'rib, do'stona subhatlar qurgach, hayot safosi ortadi, umrguzaronligi yanada obod, shukronaligi ziyoda bo'ladi.

Nafaqat o'z xalqimiz, hududlarimiz, shu bilan birga, oxirgi yetti yilda o'zbek kinosi va kinozahmatkashlarining qadami yetti iqlimga yetdi. Osiyo-yu Afriqo, Ovrup-yu Amerika, buyog'i Avstraliyagacha yer yuzining barcha qit'asida o'zbek kinolari qo'yilyapti, kinofestivallarda o'zbek kinochilari ishtirok etyapti, mukofot-u sovrinlarni qo'lga kirityapti. Kino san'ati muzeyi ekspozitsiyasining eng muhtasham bo'linalaridan biri tarixiy filmlarimizga haqqoniylik va joziba baxsh etib, qadimiy va o'ra asrlardagi Birinchi, Ikkinchi Renessans, jaddi bobolarimiz davrlari, Ikkinchi jahon urushi va XX asr 50-70-yillarga doir yaratilgan Imom Termiziy, Yalang'o'sh Bahodir, Umarxon va Nodirabegim, Ibrat, Avloniy, Behbudiy, Zulfiya va Hamid Olimjon, Said Ahmad va Saida Zunnunova, Abdulla Oripov, "Ilhaq", "Meros", "O'zbek arsloni" kabi tomoshabin insonch va qiziqishni yoqlantirgan o'nlab tarixiy filmlarimiz uchun tayyorlangan "tarixiy liboslar ko'rgazmasi" bo'lsa, yana biri "Yangi O'zbekiston kinosining olamshumul e'tirofi" deb nomlangan sovrinlar yo'lakhasidir.

Agar 2017-yilgacha olingan xalqaro mukofotlar nari-berisi o'n-o'n besh atrofida bo'lsa, so'nggi yetti yilda o'zbek kinofilmlari va kinoijodkorlari oltmishga yaqin sovriniga sazovor bo'lib, umumjahoniy e'tirof qozondi, nufuzli xalqaro festival va ko'riklarining bir biridan ko'rkam, ko'zni qamashituvchi sovg'a-ramz haykallarini qo'lga kiritdi. Bu ko'rsatkichlar ham o'tgan yuz yil bilan so'nggi yetti yilning o'lchov posongisini belgilashda og'irlik qay tomonga o'tishini ko'rsatuvchi shohidliklardir.

Davlatimiz rahbariga bulardan tashqari hujjatli filmlar sohasidagi ishlarimiz — xalqaro kinomutaxassislari milliy kinohujjatchilgimizning ulkan yutuqi, deya e'tirof etgan "Adabiyot — xalq yuragi" nomli 25 ta filmdan iborat turkum, paraolimpiya o'yinlari



g'oliblari haqidagi 19 ta filmdan tarkib topgan "Matonot maktabi" nomli yana bir turkum, mamlakatimizdagi islohotlardan keng ko'lami tasvir-subhatlar qilingan "Inson" nomli besh qismlik film, tarix, arxeologiya, arxitektura, madaniyat, san'at, turizm, dinu diyonat, buyuk ulamoyu allomalar va yana o'nlab turli mavzularda suratga olingan hujjatli so'nolmalar, kinoportret, kinopublistika, kinotaqvim shaklida suratga olingan va ishlanayotgan filmlarimiz ko'rgazmasini ham taqdim etdik.

Prezidentimiz bu ekspozitsiyani ham sinchiklab ko'rtdi, kinoablomlarni varaqladi, fikr-mulohaza bildirdi. Uyog'i "Ustoz-u shogird" ustaxonasi, xorijlik hamkorlar bilan tashkil etilgan animatsiya studiyasi, xotira portretlar galereyasi, zamonaviy badiiy filmlar ko'rgazmalari, kinomizda yetti yil davomida yillar o'sha ketma-ketlikda yetti bergan jaryonlar, xorijdan raqamlashtirilgan sotib olingan yuzta retro filmimiz "olitin to'plam"lari bilan tanishtirdi. "Ipak yo'li durdonasi" deya yangi nom bilan tiklanib, 2021-yildan buyon uch marta o'tkazilgan Toshkent xalqaro kinofestivalining farahbaxsh lavhalari, jahoniy e'zozdagi mashhur rejissyor, aktyor va aktrissalar aks etgan alohida ekspozitsiya bo'limi bo'yab olib o'tdik aziz mehmonimizni.

Ma'lumot, ko'rgazma va jonli kinolavha, kino va ma'naviyat borasidagi eng so'nggi — 2023-yil 22-dekabrda Respublika Ma'naviyat va ma'rifat kengashining kengaytirilgan yetti yillik davlat toshpirlari ijrosiga doir surat, kinorolik hamda turli taqdimot namunalarini bilan ham tanishib, Prezidentimiz muzey ekspozitsiyasi boshlanishida bergan javobumuz savolini yanada qizg'irroq shaklda ta'kidladi: "2017-yilgacha ham kino bo'lganni O'zbekistonda!".

Bu O'zbekiston kinozahmatkashlarining yetti yillik faoliyatiga berilgan eng oliy baho bo'ldi.



## Nuqtayi nazar



## MARKAZIY OSIYO ENERGOHALQASI

barchaga qulay va o'zaro manfaatli tizim

Hamidulla SHAMSIYEV,  
"Energiya" muvofiqlashtirish  
dispetcherlik markazi direktori

Daslab mazkur birlashma O'rta Osiyo va Qozog'iston janubining yagona energetika tizimi, deb atalgan bo'lsa, hozir Markaziy Osiyo va Janubiy Qozog'iston yagona energetika tizimi, deya shartli nomlangan. Umuman olganda, bunday energetika tizimi faqat bizda emas, dunyo mamlakatlarida ham talaygina.

Elektr ta'minoti tizimining o'zaro yaxlitligi (konfiguratsiyasi) 1970-yillarda, to'rtta respublika hududidan o'tuvchi 500 kV kuchlanishli liniyalarda bitta halqaga birlashtirilgan shakllantirilgan. Bundan ko'zlangan maqsad o'zaro hamkorlikda ishlab chiqarishni ta'minlash, barcha ishchilarning elektr ta'minotidagi ishonchliliğini sezilarli darajada oshirish edi. Hatto mutaxassis bo'lmaganlar ham "halqada ishlab chiqarish" ushbu halqaning biror bo'g'ini o'chirilgan bo'lsa ham uning barqarorligini saqlashga imkon berishini tushunadi. Yoki aksincha, agar energetika tizimining qismlarini bog'laydigan yirik tarmoq o'chirilgan bo'lsa, ularning parallel ishlashi buzilishi ham mumkin. Bunday vaziyatda elektr to'ki ishlab chiqaruvchi birlamchi manbalar — elektr stansiyalari barqarorligi saqlab qolindi.

Hozirgi vaqtda ushbu halqada qo'shimcha ikki halqalar paydo bo'lgan. Shunga qaramay, Markaziy Osiyo va Janubiy Qozog'iston yagona energetika tizimining qismlarini bog'laydigan yirik tarmoq o'chirilgan bo'lsa, ularning parallel ishlashi buzilishi ham mumkin. Bunday vaziyatda elektr to'ki ishlab chiqaruvchi birlamchi manbalar — elektr stansiyalari barqarorligi saqlab qolindi.

Turkmaniston va Tojikistonning Markaziy Osiyo yagona energetika tizimidan

ajralgan holda ishlayotgani da'vo qilinishi mumkin. Ammo ta'kidlash lozimki, Turkmaniston va Tojikistonning energetika tizimlari O'zbekiston, Qozog'iston hamda Qirg'iziston tasarrufida bo'lgan 500 kV kuchlanishli halqa bilan bog'liq emas.

Turkmaniston 2003-yilda o'z tashabbusi bilan Markaziy Osiyo yagona energetika tizimidan chiqdi va u hozirda Eron bilan parallel ravishda ishlayotgan. Turkmaniston biz bilan "orol" deb nomlanuvchi sxemalar bo'yicha ishlaydi, ya'ni O'zbekiston bilan alohida ishlab chiqarish energobloklarini tarmoqqa ulash orqali hamkorlik qiladi.

Tojikiston bir vaqtlar Markaziy Osiyo birlashtirilgan energetika tizimidan ajratilgan edi. Hozir Osiyo taraqqiyot banki moliyaviy ko'magi asosida Tojikistonda unga qayta ulash bo'yicha ishlab chiqarishni ta'minlash uchun yirik qurilish-montaj ishlari davom etmoqda. Darvoqe, Tojikiston energetika tizimi o'tgan yillarda davomida chastotani mustaqil ravishda tartibga solib kelgan, bunga gidroelektr stansiyalarida mavjud bo'lgan katta suv zaxiralari yordam berdi. Elektr energiyasining muhim ko'rsatkichlarini doimiy ravishda ushlab turish murakkab texnik muhandislik ishi bo'lib, bu muammoni issiqlik stansiyalari (Qozog'iston va O'zbekistonda bo'lgani kabi) yoki kichik quvvatli gidroelektr stansiyalar zaxiralari bilan (so'nggi yillarda Qirg'izistonda bo'lgani kabi) hal qilish amalda mumkin emas. Shuning uchun ham ushbu energetika tizimlarining yagona halqada bo'lishi Markaziy Osiyo energetika tizimlarining ishonchli parallel ishlashini ta'minlash, nafaqat ular, balki uzoq qo'shni davlatlar o'rtasidagi o'zaro manfaatli hamkorlikni kengaytirishning zarurati hisoblanadi.



Markaziy Osiyo yagona energetika tizimi yaratilishi davrida (01.01.1961-yil holatiga ko'ra) 4 ta energetika tizimining o'rnatilgan quvvati 1157 MVt, maksimal yuklanishi 921 MVt, yillik ishlab chiqarish 6,5 milliard kVt-soatga teng bo'lgan. Bu, o'z navbatida, mintaqada elektr energiyasi ta'minoti ishonchliliğini va sifatini keskin oshirib, gidro (suv omborlari zaxirasi) va yoqilg'i (tabiiy gaz va neft mahsulotlari) resurslaridan oqilona foydalanish imkonini bergani rost.

1991-yil 19-noyabrda Ashxobodda O'zbekiston, Qozog'iston, Qirg'iziston, Tojikiston, Turkmaniston energetika tizimlari parallel ishlashi to'g'risidagi bitim imzolandi. Albatta, bu to'g'ri qaror bo'lib, mintaqadagi energetika tizimlarining hech biri mustaqil ravishda iste'molchilarini energetika bilan to'liq ta'minlay olmasligini tushungan holda amalga oshirildi. Shunday qilib, "Markaziy energetika tizimlarining yagona dispetcherlik nazorati" tashkiloti ta'sis etildi va moliyalashtirish manbalari aniqlandi. Bir so'z bilan aytganda,

mazkur qaror tufayli "mintaqa dispetcheri" saqlab qolindi.

Markaziy Osiyo elektr tarmoqlarining parallel ishini boshqarish va muvofiqlashtirish bo'yicha boshqaruv organi — Markaziy Osiyo yagona energetika tizimi kengashi (Markaziy Osiyo YET kengashi) bo'lib, unga mintaqa mamlakatlari energetika tizimlarining birinchi rahbarlari kiritilgan, yil chorakliklarida poytaxt shaharlarda navbatma-navbat yig'ilib, masalalar jamoaviy tarzda muhokama etiladi.

Energetika tizimlarida yuz bergan tarkibiy o'zgarishlar munosabati bilan 2002-yilda O'rta Osiyo yagona energetika tizimi kengashi Markaziy Osiyo yagona energetika tizimi kengashi nomini oldi va nodavlat institut maqomiga ega bo'ldi. 2004-yil 27-oktabrda Markaziy Osiyo mamlakatlari energetika tizimlari o'rtasida Markaziy Osiyo energetika tizimlarining elektr energetika sohasidagi aloqalarini muvofiqlashtirish to'g'risida bitim imzolandi. Ushbu bitimga muvofiq, Markaziy Osiyoning hozirgi kengashi

o'rni bosuvchi, energetika tizimlari bo'yicha maslahat organi bo'lgan Markaziy Osiyoning muvofiqlashtiruvchi elektr energetika kengashi tashkil etildi. 2006-yil 29-sentabrda bo'lib o'tgan yig'ilishda nodavlat notijorat tashkilot — "Energiya" muvofiqlashtirish dispetcherlik markaziga Markaziy Osiyo energetika tizimlarining operativ-dispetcherlik faoliyatini muvofiqlashtirish vazifasi yuklatildi. "Energiya" MDM o'z faoliyatini uchinchi yil boshqaruv organi bo'lgan Markaziy Osiyo yagona energetika tizimi kengashi oldida hisobdor. Uning ta'sis hujjatlari har qanday tijorat faoliyatini taqiqlaydi.


Nafaqat energetika sohasida, balki har qanday hamjamiyatda umumiy qabul qilingan tartib-qoidalarga rioya qilishingiz shart va bu muayyan mas'uliyat yuklaydi. Har qanday quvvat tizimining parallel ishlashidan olinadigan asosiy afzalligi izolyatsiyada ishlab chiqarilgan asosiy ishchilarning kamchiliklari va ularni bartaraf etish bo'yicha takliflarni atroflicha o'rgandi. Shuningdek, meva-sabzavot realizatsiyasiga to'siq bo'layotgan masalalar ko'rib chiqildi. Bozorda faoliyat yuritayotgan yurtdoshlarimizning fikr-mulohazalari va takliflarini tinglash asosida mavjud muammolar yechimi yuzasidan fikr almashildi. O'ylaymizki, o'rganishlar, kerakli tavsiyalar ekspordchilarning faoliyatida ijobiy siljishlar bo'lishiga xizmat qiladi.

## Mavsum yangiligi

Jannatmonand yurtimizning Ko'kdalasida tarvuz-u, Surxondaryosida qovun pishib yetilganiga ancha bo'ldi. Farg'onadan esa gilosning ertapishar navlari eksportga yuborilyapti. Diyorimiz pomidorlari Boku shahridagi "Yashil bozor" savdo majmuasida "o'zbek brendi" ostida sotilayotgani ham quvonarli. Tahlillarga ko'ra, har yili yurtdan ekspord qilinadigan qariyb 200-250 million dollarlik sabzavot orasida pomidor yetakchi o'rinni egallaydi. O'zimizdan qiyos, kerak bo'lsa qishda ham dasturxonimizdan pomidor, bodring uzilmayapti. Qulupnayni ham faqat mavsumdagina yeydigan paytlarimiz o'tib ketdi. Xullas, bugun to'rt faslda ham sarxil meva topish mumkin.

## Ekspordboplik — asosiy masala

Yurtimizda meva-sabzavot yil davomida va barvaqt pishib yetilishi iqlim sharoitiga mos ko'chatlarni tanlay bilish, sobaga yangicha ilmiy yondashuvlar samarasi, albatta. Bu dunyo bozorlariga ham ertaroq kirib borishga xizmat qilayapti. Bugun talab ham aynan shu aslida. Biroq mahsulotning ekspordbopligi asosiy masala. Shu bois, hozirgi kunda Qishloq xo'jaligi vazirligi ishchi guruhi hududlarda 2024-yilda meva-sabzavot mahsulotlari ekspord prognoz ko'rsatkichlari bajarilishi yuzasidan o'rganish ishlari o'tkazayapti. Tadbirkorlarning ekspord borasidagi muammolari yuzasidan fikr almashilyapti. Jumladan, vazirlikning Agrologistika markazlari, infratuzilmani rivojlantirish va marketing boshqarmasi boshlig'i Bahodir Yunusov boshchiligidagi



## MEVA EKSPORTCHILARI UCHUN XUSHXABAR

UNDAN QACHON VA QAYERDA FOYDALANISH MUMKIN?

ishchi guruhi Toshkent shahrida joylashgan qator korxonalar — qurilgan mevalar ishlab chiqaruvchi "Sunny Fruit", meva-sabzavot shartlari ishlab chiqarish bilan shug'ullanadigan "Natural Juice" qo'shma korxonasi hamda "Bektimir nur agro" fermer xo'jaligi faoliyati bilan tanishdi. O'rganish davomida korxonalar sharoitlari, ishlab chiqarish quvvati, ekspord salohiyatini oshirish, bu borada yo'nalishlarni yanada kengaytirish kerakligi ta'kidlanib, zarur tavsiyalar berilyapti. Zero, tadbirkorlar endi yuqoridan keladigan tekshiruvlardan bezmaydi, aksincha, amaliy yordam, ko'mak olish ilinjida ularga tayanadi.

## Shamolda to'kilmaydigan ispan o'riklari

Ekspordchilarni qo'llab-quvvatlashga alohida e'tibor berilayotgani bejiz emas. Imkoniyatlar sabab Farg'ona viloyatining So'x tumani Javpaya massivida Qishloq xo'jaligida xizmatlar ko'rsatish agentligi tomonidan o'zlashtirilgan 605 gektar yerining 200 gektarida o'rikzor bunyod bo'ldi. Yana 200 gektar yer 130 ming tupdan ortiq ko'chat uchun ajratilgan. Bu yerda ham ekish va parvarishlashga kirishilgan. Qo'shimcha daromad olish maqsadida plantatsiya qator orasida oshqovoq, sabzavot hamda dukkakli ekinlar ekilib, parvarish qilinmoqda.

Namanganning cho'l-adir zonasida joylashgan "Nuran Agrocluster" MCHJ yerlarida mahalliy gilos, shaftoli, olxo'ri va na'matak ko'chatlari, shuningdek, "Mikado", "Magador", "Floripa" navli ispan o'riklari yetishtirilyapti. Jamiyat rahbari Behzod Latipovning



aytishicha, 1885 gektar plantatsiyaning 200 gektardan ziyodida 2021-yildan buyon ertapishar o'rik, xususan, uning "Mikado" navi may oyingin birinchi o'n kunligidayoq yetilib, Rossiya, Qozog'iston, Qirg'iziston, Janubiy Koreya hamda Birlashtgan Arab Amirliklariga ekspord qilinmoqda. Vazni 40-52 gramm atrofida bo'lgan "Mikado" o'ringin qizil rangda bo'ladi. Ekspordboplarining ta'mi o'rtacha shirinlikda, g'arq pishganda esa o'zgacha mazaga kiradi. Daraxti yarim yoyilgan ko'rinishga egaligi bois, shamolda mevalari to'kilmaydi. Qolaversa, bu hosilni yig'ishda ham qo'l keladi.

Ishlar innovatsion usulda tashkil etilayotgani vaqtan yutishni ta'minlayapti. Masalan,

maxsus chiplar yerda namlik kamayganidan xabar beradi va tomchilatib sug'orish tizimi ishga tushadi. Ob-havoning isib ketishi esa maxsus meteostansiya yordamida aniqlanadi. Ayni holatda ham sug'orish tizimi ishga tushadi. O'z vaqtida suv berilishi meva servus va yanada mazali bo'lishida muhim o'rinni tutadi. Chet elliklar mevalarimiz xusha'mligi, suvga, quyosh nuriga to'yinaganini e'tirof etadi. Shunday ekan, ishonchni oqlashimiz kerak.

## 20 million dollarlik daromad ko'zda tutilgan

Ekspordbop gilos yetishtiruvchilarning katta qismi farg'onalikalik. Bugungi kunda

viloyatda 739 gektar bog'da gilos parvarishlanadi. Hudud tadbirkorlari ayni paytda gilos eksportiga qizg'in kirishgan. Ayni paytda Toshloq tumanidagi "Toshloq Icy Fruit" MCHJ giloslari Janubiy Koreyadagi gipermarketlar rastalarida sotilyapti. Hudud tadbirkorlari uchun bu yangilik emas. O'tgan yillarda davomida ham Farg'ona shahridagi "Uz Segang" MCHJ Janubiy Koreyaga gilos ekspord qilib kelgan.

Umuman, viloyatda shu yilning yanvar-may oylari davomida 37 million dollarlik daromad olish rejalashtirilgan. Gilosning joriy yilgi hosili Xitoy, BAA, Rossiya, Qozog'iston, Qirg'izistonga ham yetkazib berilyapti.

## Mevalarni "o'qlash"ning oldini olsak, o'zimizni oqlashga hojat qolmaydi

Keyingi 4-5 yilda ekspord qilinayotgan o'zbek gilosi sifati bilan bog'liq e'tirozlar, ijtimoiy tarmoqlardagi salbiy fikrlar gilosni sifati terish va maxsus korxonalarda qadoqlash ishlariga alohida e'tibor qaratishni taqozo qiladi, albatta. Bu borada jahon bozori qo'yayotgan talablar tegishli tashkilotlar mutaxassislaridan tarkib topgan ishchi guruhi tomonidan joylarda bog'bon, tadbirkor va brokerlarga seminarlar o'tkazish orqali yetkazilyapti. Yetishtirishdan ekspordgacha bo'lgan zanjirda har bir jarayonda mas'uliyat va halol munosabatda bo'lish zarurligi aytilmoqda.

qilish bilan birga, birlashma ish faoliyatidan unumli foydalanishni nazarda tutaymiz. Misol uchun, elektr energetikasi tarmog'ida chastota va kuchlanishning yuqori sifatini ta'minlash lozim hamda bunga minimal kuch, ya'ni resurs sarflash — muhim vazifa.

Markaziy Osiyo yagona elektr energetika tizimi 50 ± 0,05 Gs darajadagi chastotada ishlaydi. Bu ko'rsatkichni har daqiqaga rostlab (me'yoralashtirib) turish mushkul masala. Yana bir muhim omil shundaki, har qanday energetika tizimi iqtisodiy foydani ko'zlaydi, ya'ni o'z mahsulotini — elektr energiyasini qo'shni yoki mintaqaning boshqa mamlakatlarga ekspord qilish yoki, aksincha, arzonroq bo'lsa, qo'shnilardan xarid qilish samaradorligiga intiladi. Demak, bu ham texnik-muhandislik, ham tuzatish-sozlash, ham suv va qazilma resurslardan oqilona foydalanish, ham moliyaviy foyda nuqtayi nazaridan samarali.

O'zaro halqalangan tarmoqlar chastotani (yoki quvvat oqimlarini) tartibga solish yoki ular orqali elektr energiyasini tranzit qilish kabi masalalarda bir-biri uchun yelkadosh. Halqali tarmoqlar bo'yicha ishlab chiqarish O'zbekiston energetika tizimi uchun yana bir muhim jihati borki, u ham bo'lsa, mamlakatning mintaqa markazida joylashgani. Deyarli barcha tranzit yo'llar O'zbekiston balansidagi elektr tarmoqlari orqali o'tadi. Ammo energohalqaning eng muhim ijobiy tomoni, Markaziy Osiyoda qishloq xo'jaligi, dehqonchilik, chorvachilik, qolaversa, xalq xo'jaligining barcha tarmoqlari uchun zarur bo'lgan suvdan oqilona foydalanish imkonini berishidir. O'zingiz o'ylang, yozning chillasida gaz va neft mahsulotlarini ko'proq yoqib, elektr energiyasiga ehtiyojini qoplagan yaxshimi yoki suv omborlaridagi suvni daryo o'zamlariga yo'naltirib, elektr energiyasini ko'proq ishlab chiqarish, bu orqali sug'orish mavsumini to'liq ta'minlaganmi? Qishda suv omborlaridan "sanitar me'yorlar"da suv oqizib, uni to'plash, elektr energiyasini esa tabiiy zaxiralarni hisobga ham shaharlarning isitish tizimiga berib, ham elektr energiyasi ishlab chiqarish oqilona yo'l. Buning uchun mintaqada elektr tarmoqlari o'zaro hamkorlikda, ya'ni yagona halqa tizimida ishlashi samarali.

Qaror va ijro

# TANAZZULDAN QUTQARIB, TARAQQIYOTGA ELTUVCHI YO'L ILMDIR

**Nozima Muratova,**  
O'zbekiston jurnalistika va ommaviy kommunikatsiyalar universiteti ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo'yicha prorektori,  
**Akbar NURMATOV,**  
O'ZJOKU dotsenti, filologiya fanlari nomzodi

XX asr boshlarida shakllanib, qisqa muddatda katta ta'sirga ega bo'lgan jadidchilik harakati birinchi qadamni ta'limni isloh qilishdan boshlagan edi. Bu borada, ayniqsa, buyuk islohotchi Ismoil Gaspralining "usuli jadid" maktablari muhim o'rin tutdi. Bu tushunarli, albatta. Maqsad jamiyatni yangilamoq ekan, bu vazifani yangi avlodgina uddalashi mumkin. Yangi avlodni esa eski, an'anaviy usuldagi maktablarda tarbiyalash qiyin edi. Zamon o'zgarigan, davr tezkorlikni talab qilardi.

Avlod to'plagan tajriba keyingi nasllarga o'tadi va tanlangan ta'lim yo'nalishi bo'yicha mustaqil ijodiy faoliyatga aylanadi. Uning iqtisodiy-siyosiy rivojlanish sur'ati va axloqiy holati ko'p jihatdan muayyan jamiyatdagi o'qitish sifatiga bog'liq.

O'quv jarayoni sifatini oshirish esa ta'lim dasturlari va standartlari, malaka talablarini zamonaviy xalqaro talablar darajasida ishlab chiqishni taqozo etadi. Shuningdek, ta'lim muassasalari va boshqaruv organlari tar-mog'ini uzluksiz takomillashtirib borish ham muhim ahamiyatga ega. Har qanday davlatda o'qitish tizimining tabii-ti ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy tizim, madaniy, tarixiy va milliy xususiyat-lar bilan belgilanadi.

Keyingi yillarda jahon ta'limi tizimi rivojlanishining umumiy tendensiyalari o'zgarib bormoqda. Mamlakatimizda ushbu talablardan kelib chiqqan holda jurnalist kadrlar tayyorlashga alohida e'tibor qaratilayapti. Bugungi globallashgan dunyoda media sohasi jadal rivojlanib, axborot oqimi ko'payishi va texnologiyalar rivojlanishi natijasida axborot sohasi kadrlariga talab bir necha barobar oshdi. Natijada media jabhasi ishchi kuchi bozorida talaba javob berish uchun nafaqat bilimli, balki zamonaviy texnologiyalarni o'zlashtirgan kadrlarni tayyorlash muhim ahamiyatga ega. Hozirgi murakkab medialandshaftda muvaffaqiyatli faoliyat yuritish uchun yoshlar yuqori darajadagi malaka, global fikrlash qobiliyati, turli mavzu va miqyodagi axborotni xolis yoritish salohiyatiga ega bo'lishi kerak.



mediadizayn, mediamarketing va reklama, teleradiojurnalistika, sport jurnalistikasi, xalqaro jurnalistika, axborot xizmati va jamoatchilik bilan aloqalar, harbiy jurnalistika, san'at jurnalistikasi, iqtisodiy jurnalistika, siyosatshunoslik, sotsiologiya, psixologiya kabi yo'nalishlar ochildi. Ayni paytda mazkur ta'lim yo'nalishlari bitiruvchilari televideniye,



radio, gazeta-jurnal, axborot agentliklari, saytlar, nashriyotlar, vazirlik, tashkilot va korxonalarining axborot xizmatlari, reklama agentliklari va boshqa joylarda faoliyat yuritmoqda.

Hozir mamlakatimizdagi o'ndan ortiq OTMD jurnalistik ta'lim beriladi. Bundan 5-6 yil avval bor-yo'g'i uchta oliy o'quv yurti — O'zbekiston milliy universiteti jurnalistika fakultetiga 75 nafar, O'zbekiston jahon tillari universiteti xalqaro jurnalistika fakultetiga 50 nafar, Qoraqalpog' davlat universiteti jurnalistika bo'limiga 30 nafar abituriyent qabul qilindi. Qisqasi, har yili jami 150-170 jurnalist tayyorlanadi.

Bugun esa birgina O'zbekiston jurnalistika va ommaviy kommunikatsiyalar universitetida 4,5 mingga yaqin talaba tahsil olmoqda. Davlatga tegishli, xususi hamda xorijiy universitetlar filiallarida jurnalistika yo'nalishi ochilayapti. Albatta, miqdor o'zgarishi ro'y berayotgan paytda sifat o'zgarishi haqida gapirishga hali era, deb o'ylayman. Lekin baribir raqobat, tanlov imkoniyati keng bo'lgani yaxshi.

Xalqimizda topib aytilgan bir maqol bor: "Suvi loyqa bo'lsa ham daryo to'lib

oqsin". Xo'sh, shuncha talaba o'qishni bitirib, qayerdan ish topadi, deysizga shoshilmang. Mehnat bozorida soha mutaxassislariga talab katta. Rivojlangan mamlakatlarda ham axborotlashtirish sohasining yalpi ichki mahsulotdagi ulushi oshib borayotgani jurnalistikani ahamiyati ortib, qiymat tug'dirayotganini anglatadi. Bugungi jurnalistikamiz rivoji uchun juda kerakli SMM, kopirayting, dron jurnalistikasi, multimedia jurnalistikasi, robot jurnalistikasi, harbiy jurnalistika, sport sharhlovchiligi, krizis davrida PR, mediasavodxonlik va fakt cheking, kopirayting, kreativ fikrlash kabi yangi fanlar kirib kelmoqda.

Joriy o'quv yilida ilk bora "Mediada sun'iy intellekt" fani o'qitila boshladi. Talabalar neyroarmoqlardan axborot manbasi sifatida foydalanib, kontent boyituvchi foto va video materiallar yaratish, katta hajmli ma'lumotlarga islov berish kabi qator ko'nikmalarni egallayapti.

O'zbekiston jurnalistika va ommaviy kommunikatsiyalar universitetidagi shart-sharoitlar haqida uzoq gapirish mumkin. Yangi qurilgan o'quv binolari, studiya, multimedia markazlari, zamonaviy jihozlangan auditoriyalar talabalar ixtiyorida. Shuningdek, o'ziga xoslik sifatida "open air" — ochiq

havoda dars o'tish imkonini beruvchi "labirint", "Milliy avyon", "Kinoteatr" hududlari ham talabalar uchun qulaylikdir. Ma'lumotlarga ko'ra, ochiq havoda o'tilgan mashg'ulotlar auditoriyadagi darslardan ko'ra 81 foiz samarali o'zlashtirilgan ekan.

Universitet xalqaro hamkorlikni keng yo'lga qo'ygan. AQSH, Germaniya, Koreya Respublikasi, Rossiya, Turkiya, Xitoy, Qozog'iston, Ozarbayjon kabi mamlakatlarning oliy ta'lim muassasalari bilan o'quv, ilmiy yo'nalishlarda muntazam tajriba almashilmoqda.

O'quv jarayoni va amaliyotni integratsiyalash bo'yicha qilinayotgan ishlarni ham alohida aytish kerak. Talabamiz birinchi kursdanoq zamonaviy tahririyatlarga birlashtirilgan hamda o'qishni yakunlaguna qadar malakaviy amaliyotni o'tash tizimini joriy etish bo'yicha qator ishlar bajarildi. Jumladan, yetakchi ommaviy axborot vositalarida kafedralar filiali ochilgan. Qolaversa, universitetda talabalarning "Minbar" nashri chop etilmoqda. "Kitob va kino", "Talabalar teatr studiyasi" klublari yoshlarning bo'sh vaqtni mazmunli o'tkazishga xizmat qilayapti.

O'zbekiston jurnalistika va ommaviy kommunikatsiyalar universiteti mamlakatda media va kommunikatsiyalar sohasida yuqori darajadagi ta'limni taklif etadigan yetakchi oliy ta'lim muassasalaridan biri. Universitetning o'quv dasturlari axborot va kommunikatsiyaning zamonaviy talablariga mos. Darslarda tinglovchilarning mehnat bozori talablariga mos ko'nikmalarni egallashga alohida e'tibor qaratiladi. Bu jarayonda talabalar axborot yaratishga doir ko'p qirrali ko'nikmalar, xususan, tahlil qilish, yozish, foto va video tasvirga olish, montaj qilish, axborot manbalari bilan ishlash kabilarni mukammal darajada o'zlashtiradi.

Axborot taraqqiyotining ayni kundagi holati jurnalistik ta'lim oldiga amaliyot bilan mahnafas bo'lish, yangi tendensiyalar bilan barobar harakatlanish talabini qo'yimoqda. Universitetimizda talabalar xuddi shu talab-lardan kelib chiqqan holda o'qitilmoqda.

## Bugunning gapi

Ma'naviy tarbiya inson shaxsini shakllantirish, uning ishlab chiqarish, ijtimoiy, madaniy, ma'rifiy hayotda faol ishtirok etishini ta'minlashga qaratilgan ma'naviy ta'sirlar, tadbirlar, harakatlar, intilishlar yig'indisidir. Endi bu jarayonda ma'naviy tarbiya uzviyligini ta'minlash uchun o'quvchilar ongi, hissiyoti va maqsadlariga tizimli ta'sir etish samarador usuldur. O'quvchilarda ma'naviy-axloqiy ongini shakllantirish, his-tuyg'ularini tarbiyalash va maqsadli yo'naltirish, shuningdek, xulq-atvor ko'nikmasi va odatlarni qor toptirish zarur.



Oygul KAJANOVA, "Ma'rifat" targ'ibotchilar jamiyati a'zosi, jurnalist

Sababi, odatlar kishining o'z ustida ishlashi jarayonida ortib boruvchi foizlardir. Xuddi omonatga qo'yilgan pulga foiz qo'shilishi tufayli ko'payib boragandek, odatlar samarasi ham har bir takrorlashdan so'ng ortib boradi, deb yozadi Jeyms Klir "Atom odatlar" kitobida. Muallifning yozishicha, bir-ikki kunda hech qanday natija kuzatilmagani mumkin, ammo oy va yillar o'tgani sayin ularning ta'siri bag'oyat o'sadi. Yaxshi odatlar naqadar qimmatli yoki yomon odat qanchalik zararli ekani ikki, besh yoki o'n yil o'tib, ortga qaraganimizda yaqqol ko'rinadi.

Demak, ushbu usulni maktab o'quvchilari, umuman, farzandlar tarbiyasida qo'llasak, o'quvchi ongida kundalik odatlarga, intizomga amal qilish natijasida mas'uliyatni his etish ko'nikmasi shakllanadi. Odat bora-bora shaxsning fe'l-atvoriga aylanadi. Bu usul salbiy va ijobiy bo'lishi mumkin.

Misol uchun, bola har kuni ertalab darsga kech qolaversa yoki uyqudan uyg'onishi bilan kuni telefon o'ynash bilan boshlasa, bu salbiy odat takrorlanaverib, iltalga aylanadi.

Aksincha, tarbiyaviy tadbirlar rejasini to'g'ri ishlab chiqilib, kunga 3 bet kitob o'qish, sport bilan shug'ullanish, til o'rganish kabi odatlar kundalik me'yorga aylantirilsa, o'quvchi ma'naviy-axloqiy jihatdan yuksak fikrlash, tahlil qilishga o'rganadi. Vaziyatni to'laqonli baholay olish qobiliyatiga ega bo'ladi.

Bir kun kitob o'qib, g'oyani o'rganib, kishi daho bo'lib qolmaydi. Doimiy o'qib-o'rganish insonni yangidan shakllantiradi. O'qilgan har kitob eski g'oyalarga yangicha qarashni o'rgatadi. Uorren Baffet aytganidek, "bilim xuddi ko'payib boradigan foiz singari ishlaydi". Ma'naviy jihatdan chinakam o'sish jarayoni sekin, ammo mustahkam amaliyot bilan kechadi. Bu qonuniyat.

Xuddi shuningdek, ma'naviy odatlar, oddiy tilda aytganda, yaxshi odatlar avvaliga hech qanday o'zgarish yasamagandek tuyuladi. Inson tabiati besabirlikka moyilligi sababli darrov natija kutadi. Farzand tarbiyasida ko'zga ko'rinarli samara, ya'ni o'sishni ko'rmasdan, hafsa pir bo'la boshlaydi. Aslida esa uzoq davom etadigan odatlarni hosil qilishdagi asosiy qiyinchiliklar pog'onasi shu bo'ladi. Buni boshlang'ich ma'naviy progressiya pog'onasi, deyish ham mumkin.

### Buyuk ish: ma'naviy nusxta

Yosh avlod ongida aniq maqsad hosil qilish uchun avvalo, kun tartibini shakllantirishni, kunini qanday o'tkazishini bilish lozim. Bu borada akademik litsey o'quvchilari orasida "Mening kun tartibim" so'rovnomasi tadqiqoti o'tkazildi.

So'rovnomada 22 bola qatnashdi. Yakuniy xulosaga ko'ra, ijtimoiy ahvol bunday: kitob o'qishini qayd etganlar soni 3 nafar, dars qilishini yozganlar esa 9 nafar. Bundan yoshlarimizni havoyi gap bilan kitobxonlikka da'vat eta olmasligimiz ko'rinib turibdi. Kitob o'qish, mutolaa zavqi, mazasini tuyish hissiini berolmayapmiz. Sababini bir misol bilan tushuntiramiz. Bir odat yapon xalqining vujud-judigiga singib, hayotiy zaruratiga aylangan ekan. Tongda ko'zini ochishi, uyg'onishi bilan, albatta, unga murojaat qiladi. Nonushta

# OLDINGA HARAKAT

## yoshlar tarbiyasidagi muhim omillar

bo'lmagligi ularni umuman qiziqitirmaydi. Bu qaysi odat deysizmi?

Yaponiyaliklar kuni mutolaa bilan boshlar ekan. Har tong bir finjon qahva bilan, albatta, gazeta, jurnal o'qish odat tusiga kirgan. Nonushta dasturxonada yangi keltirilgan gazeta yoki jurnal bo'lmasa, ular o'zini xo'rlangandek his qilarkan. Qarang, ma'naviy nonushtaning zaruratini his etish nechog'liq muhim-a? Endi do'ppini chetga olib, mushohada qilsak: kitob o'qi, ma'naviyatning boyit, deysiz bilan bola ma'naviyatni yetuk bo'lib qolmaydi. Zamona zayli, texnika asri ehtiyojiga ko'ra, yoshlarga turki beruvchi, xohish-istagi bilan kitobni qo'lga olishga undovchi tizim yaratishimiz lozim.

### Tarbiyaviy ta'sir oildan boshlanadi

Tadqiqot natijasiga ko'ra, o'quvchilarda yomon odatlar, jumladan, bo'sh vaqtni bekorchi ishlarga sarflash ko'rsatkichi yuqori darajada. Bir savol tug'iladi: nima sababdan yomon odatlarni takrorlash shunchalik oson va aksincha yaxshilarni shakllantirish shu qadar qiyin? Javobi bitta: odatlarni o'zgartirish ikki

sababga ko'ra qiyin kechadi. Birinchidan, noto'g'ri usulda o'zgartirishga urinish, ikkinchidan xulq-atvorga ta'sir etuvchi omillarni hisobga olmaslik. Unga oila — maktab — atrof-muhtomil ta'sir qiladi.

Birinchi omil — oila. Bu maskanda farzand uchun e'tibor talab etiladi. Ma'naviy odat shakllanishining negizi ham aynan shu yer, ya'ni oila. Dastlabki tizim ota-ona qo'lida bo'lib, u boshqarishga mas'ul. Bolaning yaxshi yoki yomon bo'lishi ota-ona tuzgan ma'naviy-tarbiyaviy tadbirlar rejasiga bog'liq. Farzand tarbiyasiga o'ta mas'uliyat bilan yondashuv talab etiladi. Tabiatdagi, inson fe'l-atvoridagi o'zgarishlar ham o'z-o'zidan paydo bo'lmaydi. Yaxshi odam birdan yomon, odobli bola o'z-o'zidan badxulq bo'lib qolmaydi. Demak, qayerdadir tarbiya zanjiri uzilgan, uzluksiz ta'lim, me'yor, muvozanat buzilgan. Nimadadir e'tibor susaygan yoki ortiqcha ruju qo'yilgan. Tarbiyada tanaffus bo'lgan.

Farzandlari kichikligidanoq aqlli, odobli, iqtidorli bo'lishini istagan ota-onalar ayni damda o'mak bo'lmog'i dardkor. O'z shaxsida odob-axloq, boy ma'naviy olam va keng tafakkur shakllantir ekan, bolalar insonni qadrlash va muomala qilish, kattaga

hurmat, kichikka izzatni ota-onadan o'rganadi. Asta-sekin bu holat odat tusiga kirib boradi. Yoshlarimizning ma'naviy komil inson bo'lishi, bo'zgal fazilat egasiga aylanishi bosqichma-bosqich amalga oshadi. Ma'rifati jamiyatning ma'naviy tarbiyasi millatning umumilliy g'oyasiga aylanmog'i lozim.

### Yangi islohotlar

Yosh avlodni har tomonlama yetuk qilib tarbiyalashda ikkinchi omil — ta'lim tizimi, ya'ni maktab alohida o'ringa ega. Bolaga ta'lim berish, o'zlashtirishni nazorat qilish, uyga vazifalarni bajarishga ko'z-quloq bo'lish ham shunga kiradi. Ta'lim sifatining qoniqarli yoki qoniqsiz, ijobiy va salbiy sabablari ota-ona va o'qituvchi bilan birga o'rganiladi. Bu borada UNICEFning O'zbekistondagi vakolatxonasi ta'lim bo'limi boshlig'i Dipa Shankarning quyidagi so'zlarini eslash joiz: "Uy qurishga kirishishdan oldin maqsadimiz nima ekanini yaxshi bilishimiz kerak. Buning uchun aniq reja va chizmalar bo'lishi lozim. Ahar rejangiz bo'lmasa, xatoga yo'l qo'yasiz: ortiqcha resurs, mablag' va vaqt sarflaganingiz qoladi. Buni ta'lim sohasida ham qo'llasa bo'ladi". Demak, ma'naviy tarbiya bevosita pedagogik faoliyatdir. Shunday ekan, ta'lim dargohlarida ma'naviy sektorning borligi, uni faollashtirish, tizimlashtirish nur ustiga nur bo'ladi.

Davlatimiz rahbari o'tgan yili Surxondaryo viloyatiga tashrif chog'ida mahallalarda to'rtta sektorga qo'shimcha beshinchi — "ma'naviyat sektori"ni tashkil qilish bo'yicha taklif bergan edi. Ushbu sektorga maktab va hududga tegishli mahallalar mas'ullari, ziyolilar birlashtirilib, maktablarda ma'naviy-ma'rifiy ishlar bo'yicha ijtimoiy-ma'naviy xarita ishlab chiqiladi. Bu sa'y-harakatlar tarbiya fani darsida amaliy pedagogik natijasini, albatta, ko'rsatadi.

### Mahalladagi ma'naviy progress

"Bir bolaga yetti mahalla ota-ona" degan naql bor. Mahalla milliy ma'naviy qadriyatlarini asrab-avaylash, el-yurt tinchligi va

osoyishtaligini mustahkamlash, yoshlarning ma'naviy tarbiyasi va ularni komil inson etib tarbiyalashda muhim ahamiyatga ega. Hayotning achchiq-chuchugini totgan, ko'pni ko'rgan, dunyoning past-ubalandini bilgan mahalla oqsogollari, kayvoni onaxonlar hayot tajribasi bilan yoshlarga yo'l-yo'riq ko'rsatib, milliy an'analarimiz davomiyligini asrab-avaylab kelayotgani maqsadga muvofiq.

Bunda mahallaga xos hayot tarzi va turmush madaniyati, qo'ni-qo'shni va mahalla-ko'y o'rtasidagi munosabatlarning ta'siri katta. Sektor maktabdagi ijtimoiy-ma'naviy muammolarga tizimli yondashib, bajarilayotgan ishlarni muvofiqlashtiradi hamda mazkur sohadagi vazifalar bo'yicha javobgar.

Mahallalar hamkorligida ma'naviyat sektorini tashkil qilish, maktablarda ijtimoiy-ma'naviy muhtini barqarorlashtirish, tarbiyaning yaxlitligi va uzviyligini ta'minlash jarayonida o'quvchilarni kitobxonlikka jalb etish, vatansparvarlik ruhida tarbiyalash, madaniyat va san'atga oshno qilish, unutilayotgan milliy qadriyat va an'analarimizni ommalashtirish hamda xalqimiz orasida mehr-qo'niqat tuyg'ularini kuchaytirish kabi qator muhim vazifalarni ro'yogga chiqaradi.

Bu borada maktablarda ta'lim mazmunini bilim berishga qaratilsa, ma'naviy tarbiyaning ta'lim bilan uyg'unligi mohiyati me'yorlar, qoidalar, qadriyatlar, ma'naviy boyliklarni asrab-avaylash talabiga tayanadi. O'qitish asosan, aql-idrokka ta'sir ko'rsatasa, ma'naviy tarbiya bola shaxsiyatining shakllanishiga turki beradi. Biroq ikkala jarayon ham shaxsning ongi va xulq-atvoriga birdek ta'sir ko'rsatadi va ma'naviy progressga olib boradi.

### Tashqi ta'sir: biz ilg'amagan haqiqatlar

Farzand tarbiyasida uchinchi omil — atrof-muhtomil katta o'ringa ega. Bolaning dunyo-qarashi, o'ziga bahosi, o'zgarar haqidagi fikri shu bilan bog'liq. Deylik, sinfda o'zlashtirishni istamaydigan 15 o'quvchi bo'lsa, o'qishni istovchi qolgan bolalarda ham sekin-astalik bilan o'z-o'zidan o'qishga ishtiyoq so'na boshlaydi. Zero, inson miyasi prognozlovchi mashinaga o'xshaydi. U atrof-muhtomil to'xtovsiz kuzatib, olgan ma'lumotlarini tahlil qilib boradi.

Yangi O'zbekistonda ma'rifati jamiyat qurish ma'naviy ehtiyojlarning ma'naviy-axloqiy mazmun bilan qay darajada boyigani bog'liq. Mamlakatni qudratli, millatni buyuk qiladigan kuch — ilm-fan, axloqiy-ma'naviy tarbiya ekani ayni haqiqat. Bu borada esa yangi ma'naviy odatlarni shakllantirishdan oldin eskilarini tizginlab olishimiz dardkor. Maktab ta'limi tizimida ma'naviy immunitetni shakllantirish va mustahkamlash uchun ma'naviy progressiya jarayonidan o'tiladi.

Boqiy meros



Yaqinda bunyod etiladigan Yangi Toshkent massivida Alisher Navoiy nomidagi xalqaro ilmiy-tadqiqot markazi, ijod maktabi, Adabiyot muzeyi, markaziy kutubxona bilan birga, Milliy maqom markazini jamlagan o'ziga xos ma'naviyat majmuasi qad rostlaydi. Davlatimiz rahbarining "Bugun poydevori qo'yilayotgan maskanlar ko'p yillar xalqimiz ma'naviyatini boyitish, yoshlarimizni har tomonlama yetuk va barkamol insonlar etib tarbiyalashga xizmat qiladi. Yangi Toshkent shahrining nafaqat yurtimiz, balki mintaqamizda ham chinakam ilm-ma'rifat va madaniyat markaziga aylinishiga katta hissa qo'shadi, deb ishonaman", degani esa har bir mutasaddi zimmasiga ulkan mas'uliyat yuklaydi.



MILLIY RUHGA HURMAT, SADOQAT USTUVOR

Milliy maqom markazining ma'rifat taratishdagi o'rni va ahamiyati haqida soha jonkuyarlaridan biri, musiqashunos olim Soyibjon BEGMATOV bilan suhbatlashdik.

— Har bir millatning ovozi harakatlantiradigan o'z tovushqatori bor, — deb gap boshlaydi suhbatdoshimiz. — "Yor-yor"ni, "Alla"ni tinglasangiz, o'zbekning yuragi, dili, dardi chiqib keladi, yig'latadi. Aslida, asosi maqomga qurilgan har qanday qo'shiqda milliy ruh, dard bo'ladi. Shuning uchun ham yurtimizni mustamlaka qilganlar millatimiz buyuklari, jaddilarni jismonan mahv etish barobarida xalqimizni yaxshi ko'rib tinglaydigan musiqasi — maqomidan ayirgan. O'sha davrlarda qariyb unutilayotgan milliy maqomimiz mavqei 2017-yilga kelib tiklandi. Prezidentimizning 2017-yil 17-noyabrda "O'zbek milliy maqom san'atini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori bu borada tarixiy davrga eshik ochdi.

Markazimiz oldidagi eng dolzarb vazifa, avvalo, yosh avlodga maqom ilmini mohiyatini singdirishdir. O'shanda qo'shiqqa o'ziga maqom unsuri aralashgan bo'lsa ham yoshlar anglay oladi. Shuning uchun bugun farzandlarimiz qalbiga maqomni jo qilish to'g'risida ko'p gapirilyapti va amaliy ishlar qilyapti.

Maqomning asl makoni

Akademik Yunus Rajabiy tamal toshi qo'yib ketgan Maqomchilar ansambli ham, Maqom san'ati markazi ham O'zbekiston radiosi binosida faoliyat yuritadi. Soyibjon aka Maqom markazi uchun qurilayotgan alohida bino va undagi sharoitlar haqida bunday dedi:

— Maqom markazi 2018-yili tashkil etilgan bo'lsa-da, anachadan buyon Radio-eshittirishlar uyida ishlab kelyapmiz. Bu yerga mehriban tushgan, bizga qardron bo'lib qolgan. Ayniqsa, xavfsizlik jihatidan hamisha ko'nglimiz to'q. Umuman, yaxshi muhitda samarali ishlayapmiz. Shiddat bilan rivojlanayotgan bugungi davrda bir oz boshqacha sharoitga ehtiyoj sezilib qoldi. Ya'ni maqomni bolalar bog'chasi bilan boshlab singdirish kerak ekan. Buning uchun alohida binomiz, televideniye, radio efiriga chiqq oladigan jonli studiyamiz bo'lsa, maqsadga muvofiq. Qolaversa, markazga tez-tez mahalliy, xorijiy mehmonlar kelib turadi. Ular bilan ish joyimizda bevosita muloqot qilishga to'g'ri keladi. Albatta, markazda bunday sharoit bor. Lekin alohida binoda dam olish kunlari bolalarga to'garaklar ochsak ham



bo'ladi. Buning uchun imkoniyatimiz yetarli. Yunus Rajabiydan 20-30 yillab ta'lim olgan ustozlarimiz bor.

Markazda va'ot etgan maqomchilar haqidagi tarixiy ekspozitsiya joy olishi kerak. Ular suratlari, haykallari, cholg'ulari, qo'shiqlari, yozgan kitoblari bilan gapirsin. Endi bizning ham o'z zalimiz, targ'ibot yo'limiz, konsert qilsak, odam yig'iladigan binomiz bo'lishidan xursandmiz. Kelajak avlod uchun tayanch, maqomga chinakam makon bo'ladigan inshoot bunyod etilyapti. Loyiha mukammal tuzilgan, hech bir jihat e'tibordan chetda qolmagan. Binoni O'zbekistonning geografik muhitini yaxshi biladigan, majmuaga shunga ko'ra ishlov beradigan chet ellik mutaxassislar quradi. Zero, milliy maqom san'ati markazi poydevorida milliylik, o'zbekona jilva bo'lishi kerak. Shu bilan birga, u madaniy hordiq chiqariladigan joy bo'ladi. Chunki qadimda maqom faqat saroylarda ijro etilgan, saroydan tashqariga chiqmagan. Maqomga podshohning o'zi homiylik qilgan. Ularning izmisiz maqomni biron ijro etmagan. Buxoro amiri xalq uchun yilda ikki yoki to'rt bor maqom kechalari tashkil etgan. Hatto maqomni buzib ijro qilganlar turli usullar bilan jazolangan.

Yangi quriladigan maqom markazining eng yuqori — to'rtinchi qavat amfiteatr bo'ladi. Hududlarning maqom yo'lga ko'ra, har birining o'z xonasi bo'lishi ko'zda tutilgan. Farg'ona-Toshkent maqom yo'lini eshitgisi kelganlar shu hudud uchun ajratilgan xonaga kiritiladi. U yerda hammasi narsa — kiyimlar, taomlar, urf-odatlar ham shunga ko'ra moslanadi.

Har bir hudud o'z yo'lga ega bo'ladi

— Ayni paytda Madaniyat vazirligining ba'zi loyihalariga nisbatan salbiy munosabat kuzatilmoqda. Biroq "Maqom yo'llarida yaratilgan eng yaxshi asar", "Milliy maqomlar asosida yaratilgan zamonaviy yo'nalishdagi eng yaxshi asar" (kamer vokal va cholg'u asarlar), "Musiqashunoslar orasida maqom ilmi va ta'limiga oid eng yaxshi adabiyot" (monografiya, darslik, o'quv qo'llanma, nota to'plami) kabi tanlovlarga hech kim e'tiroz bildirayotgani yo'q. Lekin bunday tanlovlar haqida hamma ham bilavermaydi. Bilgan taqdirda ham muhokama qilishga, munosabat bildirishga qodir emas. Xo'sh, aslida, ana shunday tanlovlar maqom yo'lida ijod qilayotgan bastakorlar, maqom san'ati ijrochilari yaratayotgan yangi asarlarni izlab topishga qay darajada xizmat qilayapti?

— Maqom san'atini yanada rivojlantirish va zamonaviy bastakorlik ijodiyoti an'analarga singdirish, maqom yo'lida ijod qilib kelayotgan bastakorlar, kompozitorlar, o'zbek milliy musiqasini nazariy jihatdan o'rganib, tadqiq etayotgan musiqashunoslarni kashf etish, har tomonlama qo'llab-quvvatlash va rag'batlantirish maqsadida shunday tanlovlar o'tkazib kelinayapti. Maqsad — bastakorlik an'analarning eng yorqin namunalarini sifatida barcha milliy qadriyatlarimiz, xalqimizga xos milliy an'analarni o'z ohangida mujassam etgan durdona asarlar, maqom

yo'lida ijod qilayotgan bastakorlar, ijrochilar yaratayotgan yangi asarlarni izlab topish, ular uchun keng imkoniyat yaratish, maqom san'atini yanada ommalashtirish va targ'ib etish.

Ozarbayjonda mug'om markazi ochildi. Har ikki yilda bir marta bolalar, yoshlar va kattalar o'rtasida bir necha tanlovlar o'tkaziladi. Bu markaz xalqaro maqomga ega. Biroq 40 kishi ishtirok etadigan tanlov ishtirokchisining 37 nafari ozarbayjonlik. 100 kishidan 20 kishini tanlash kerak. Bizda shuncha iste'dod yo'qmi? Bor, faqat to'g'ri ta'lim berishimiz zarur. Ustoz ko'rmağan shogird har maqomga yo'rg'alar, deb xalqimiz bejiz aytmagan. Yoshlarni o'z holiga tashlab qo'ymay, yo'nalish ko'rsatsak, o'ylaganimizdan kuchliroq iste'dodlarni kashf qilamiz. Masalan, Mohichehra Shomurodova chet elda birinchi o'rin va gran pri sobihi bo'ldi. Chunki u Rahmatilla Inoyatov, Eshpo'lat Ortiqov, Tolib Temirov maktabida tahsil olgan. Yulduz Turdiyeva, Soyib Niyozov, O'lmas Olloberganov, Gulzoda Xudoynazarova kabi maqomchilar ham shu maktabga mansub. Hududlarda ham iqtidorlilar juda jo'yib. Farg'onaga borib maqomchi qizlarni ko'ring, ajoyib ovozi egalarni uchratsiz. Tadbirlarda, tanlovlarda maqom ijrochilari tarkibi ancha yasharganini ko'rib xursand bo'lyapmiz.

Ana shunday yoshlarning maqomchilikda o'z yo'lini topishi uchun alohida OTM — Yunus Rajabiy nomidagi o'zbek milliy musiqa san'ati instituti ochildi. To'rt yilda ancha shakllandi, o'qituvchilari tanilib qoldi. Asta-sekin hammasi izzat tushadi. U maqom ta'limining integratsiyasini boshqarib turadi. Shunday qilib, har bir hudud o'zining



maqom yo'lga ega bo'ladi. Zero, Farg'ona, Buxoro va Xorazmda maxsus maqom maktablari ochildi.

Prezidentimiz maqomga ixtisoslashtirilgan maktablar nega endi uchtagina joyda bo'lishi kerak, hamma viloyatlarda ham bo'lsin, deganida juda ruhlandik. Maqom ansambllari 12 ta viloyatda, Qoraqalpog'istonda ish boshladi. Hatto aholi soni kam hududlar, ayrim tumanlarda ham tashkil etildi.

Nega alohida musiqa nazariyamiz bo'lmasligi kerak?

Bugun bolaga maqom haqidagi ilk tushuncha va ta'lim-tarbiya oildada, maktabgacha ta'lim tashkilotlari, umumta'lim maktablarida berib borilishi zarurligi ta'kidlanayapti. Bu muayyan maqsadga yo'naltirilgan ta'lim dasturlari yaratishni taqozo qiladi. Mutaxassislar maqom ilmi haqidagi qo'llanma va adabiyotlar juda kamligini aytadi. Bugun san'at yo'nalishidagi ta'lim muassasalari o'quv dasturiga "Shashmaqom" ijro an'analari kiritilgan markaz jamoasi zimmasiga juda katta mas'uliyat yuklaydi. Soyibjon Begmatov nashrlar, adabiyotlar kamligi, bu kemitkni to'ldirish haqida kuyinib gapirdi:

— To'g'ri, maqom haqidagi manbalar juda kam. Abu Nasr Forobiy, Abu Ali ibn Sino arab tilida, Jomiy, Kavkabiyy, Husayniy fors tilida yozgan kitoblar o'zbekchaga tarjima qilinmagan. Buning uchun mutaxassisning o'zi yo'q. Bu juda katta muammo. Musiqiy asarni tarjima qilish uchun musiqiy ilm ham kerak-da. Biroq maqomni tushunadigan yurtdoshlarimiz juda ko'p. Ular maslahat beradi, fikr bildiradi. Maqom targ'iboti uchun homiylik qiladiganlar ham bisyor. Shahrisabzda Yunus Rajabiyning akasi Rizqi Rajabiy avlodidan bo'lgan kishilar bizga 200 dona kitob sovg'a qildi. "Yunus Rajabiy" deb nomlangan bu katta nashring bir nusxasi 500 ming so'm turadi.

Maqomda har bir hududning o'z falsafasi bor. Bundan 70 yil avval bir kengash Xorazm maqomini alohida tahlil qilib, xulosa bergan. O'sha kengash dalolatnomasi, yig'inda qatnashgan odamlar bor. Kengash bayonnomasi asosida Xorazm namunaviy maqom ansambli shu yerga kelib, 4 yil bir necha maqomni boshqatdan yozdi. Mutaxassislar yordamida qaytadan nota oldik. Keyin xorazmlik ustozlarni yig'ib, uch oy bima-bir qarab chiqdik. Saralanganidan keyingina nashr qilindi.

Manbalar yo'q, degan odam, bilingki, o'zi izlanmaydi. Manba zarur bo'lsa, izlab topish mumkin. Kerak bo'lsa, Angliya kutubxonasidagi kitoblarning faksimile nusxasini olib kelyapmiz. Kitobsiz bo'lmaydi axir. 20 ga yaqin asar yaratdik. Uch tilda "Maqom nima?" degan kitob chop etildi. Hozirgi bastakorlardan Abdushohim Ismoilovning 100 ga yaqin asarini jamlab, monografiya nashr qildirdik. 25 bastakorning 4-5 tadan restomatiasini yaratdik. "An'anaviy o'zbek musiqa asoslari" degan kitobimizda uchta maqom yo'nalishi bor. Uch yildan buyon o'tkazilayotgan

tanlov asarlarini yig'ib, Toshkent va Toshkent viloyati musiqa maktablariga tarqatdik. Nasib qilsa, butun mamlakat bo'ylab yetkazamiz. "O'zavtosanoat" uyushmasi maqom targ'iboti yo'lidagi tadbirlar o'tkazish, kitoblar yaratish, "Maqom" jurnali chop etilishida beminnat homiylik qilayapti. Maqomni tushunadiganlar, qo'llab-quvvatlaydiganlar bor ekan, nega bizning alohida musiqa nazariyamiz yaratilmaydi? Buning uchun kamchiligimizni topa oladigan ustozlar kerak. Navoiyni tarjima qilganlar ham musiqa bilan bog'liq joyga kelganda, o'z bo'lib qoladi. Zero, Navoiyda maqom haqida ko'p ma'lumot bor. U maqomlarimizga tamal toshi qo'ygan, deb ayta olamiz. Nazariy nazariyasidan andaza olib, musiqamiz tarixi, nazariyasi, o'zbek maqomining pardasi yaratilishi kerak. Bu bo'yicha juda ko'pchilikka murojaat qilganimiz.

Maqomning asl mohiyati chuqur anglashilsa...

— Istasak-istamasak, bugun yengil-yelpi musiqalar, qo'shiqlar aksariyat yoshlarni o'ziga rono etyapti. Bu ma'lum ma'noda yoshlarning ehtiyoji bo'lishi ham tabiiy. Biroq asl mohiyati chuqur anglashilsa, bot-bot singdirilaversa, maqomni ham yoshlar qalbiga chuqurroq joylata bo'ladi, to'g'rimi? Buning uchun, sizningcha, yana nimalarga e'tibor qaratis kerak?

— Ochig'ini aytsin kerak, bog'chadan boshlab akademiyagacha eski tilimda saboq berib kelingan. Shuning uchun maqom ilmini o'rgatishning yangi tizimini olib kirishga harakat qilinayapti. Aslida, maqomni yoshlarga o'rgatish mashhaqatli ish. "Maqom alifbosi"ni tatbiq qilganimizda endi hamma maqomchi bo'lib ketadimi, deyishgandi. O'rgatganimiz bilan hamma ham maqomchi bo'lavermaydi. Buning uchun juda katta ovoz, iqtidor, mahorat bo'lishi kerak.

Maktablarimiz, bog'chalarimizga milliy musiqa san'atimizning Yunus Rajabiy, Ma'murjon Uzoqov, Hoji Abdulaziz kabi darg'alari suratlarini qo'yib, qisqacha tarjimai holini yozib qo'yarak, bolalarimiz loqaql umumiy tushunchaga ega bo'ladi. Televideniye, radioda ko'proq milliy ruhda qo'shiqlar namoyishiga e'tibor qilinsa, foydadan xoli bo'lmaydi. Joylarda biz bilmagan yangi ovoz egalarni kashf qilish maqsadida mumtoz qo'shiqlar ijrosi bo'yicha mahalliy tanlovlar ko'proq o'tkazilishi maqsadga muvofiq. Umuman olganda, hammasi milliy musiqa san'ati rivoji yo'lida kuchimizni safarbar qilishimizga borib taqaladi. Faqat milliy ruhga hurmat, sadoqat ustuvor bo'lsa, kifoya.

"Yangi O'zbekiston" muxbiri Munajat MO'MINOVA suhbatlashdi.

Yaqinda bir ma'lumotga ko'zim tushdi: suv ta'minoti sifati aholi jon boshiga daromadning 22,1 foiz, sanitariya sharoiti yaxshilanishini esa 13,2 foiz oshirishi aniqlangan. Yakuniy model natijalari suv va sanitariya sharoitlarini yaxshilash uy xo'jaliklarida jon boshiga to'g'ri keladigan daromadni 11,7 foiz oshirishini ko'rsatgan.

Endi mirishkor qishloq ahli yetishtirgan mayizlarining pulini toza ichimlik suvi ishish uchun quduq qazishga emas, o'zining ro'zg'origa, kamu ko'stini to'ldirishga sarflaydi.

Yuqoridagi ma'lumotning mag'zini chaqib, Qosim bobo esimga keldi. U har yili bemor nabirasini davolash uchun shaharga yo'l oladi. Endi u quduq qazishga ishlatadigan mayiz pulini nabirasining oyoqqa turishi uchun sarflaydi. Xudo xohlansa, nabirasi ham oyoqqa turadi. Jarbuolqil Ashir cho'pon har yili erta ko'klam sel oqizib ketadigan kichik hovuzini ta'mirlash uchun sarflagan pullarini bolalari ta'limiga yo'naltiradi... Erkinlik nafasi kechib yurgan yurtning bag'rida unayotgan insonlarni har doim o'ziga chorlaydigan zaminlar bo'ladi. Odamning izlab yashaydigan vatani bo'ladi. Bugun islohotlar nafasi kirib borgan chekka qishloqning dilkash odamlari, nuroniy otaxonlari duoga qo'l ochadi: yurga tinchlik, xalqqa omonlik, islohotlarning amaliga shukuhini yashirmaydi. Kengliklarda u'nab yurgan bolalar ovozi ko'ni tutadi. Bu qilgilar bugun odamlar davlatga emas, davlat odamlarga yaratayotgan imkoniyatlar ifodasidir.

Sardor TOLLIBOYEV, "Yangi O'zbekiston" muxbiri

Mulohaza

Tog' boshiga bulutlar qo'ngan. Quyosh esa ufq tomon og'a boshlagan. Bir oz oldin sevalab o'tgan yomg'irning tuproq bilan aralash hidi odamni tetiklashtiradi. Uzoqdan o'z bastini ko'z-ko'z qilayotgan adirlar yo'l charchog'ini oladi. Yorqin tovlanayotgan kamalak ko'klamning yomg'irli, aldanchi havosiga yakun yasagandek tabiatga ko'rk bag'ishlab turibdi. Bu mo'jiza odamni o'zga bir olamlarga chorlaydi.

Qishloqqa kirib borar ekansiz, adirliklar bag'ridagi uylarga ko'zingiz tushadi. Loysuvovq tandirxonalar og'likxonalar ustida bolalar chuchmoma tarayotganini ko'rasiz. Oqayotgan shoshqin soy suvi odamning dilini yayratadi. Qishloqni uch tomondan o'rab turadigan purviqor tog'lar boshidagi qor kunlar isishi bilan erib, soyni to'ldiradi. Saratonning tafti sezila boshlaguncha suv qurimaydi. Kamar bo'yab joylashgan uylar aynan shu yerdan dehqonchiligini suvlaydi.

Shaharning shovqiniga to'la ko'chalarni tashlab, qishloqqa tabiatning ko'klam nafasiga



qorishgan hissi bilan kirib bordim. Qo'nim topishim bilan amakim "suv keldi" deydi. O'ylay boshladim. Axir bizda quduqdan suv chiqsa, ariqdan suv kelsa, qanaqa suv ekan... Jim qolganimni payqagan amakim e'tiborsizligimdan bir oz og'ringanamo dedi:

— Minoradan biz tomonga ham suv chiqarishdi!..

Endi angladim. Qishlog'imiz adirlik bag'rida joylashgan. Asosiy ichimlik suv quduqdan olinadi. Bir necha yillar avval ozarbayjonliklar qishloq markazida suvminor tiklay boshlagandi. Qishloq odamlarining aytishicha, toza ichimlik suv endi xonadonlargacha keldi.

Tog'-u toshda yashaydigan yoshi ulug'lar duoga qo'l ochganida qor so'raydi. Qor qutbaraka olib keladi. Yoz bilan qaqshab ketgan yerlarning chanqog'ini bosadi. Qorning ko'p yoki kam yog'ishiga qarab dehqonchilik rejaralarini tuzadi. Erta ko'klam yog'iri odamlar qurgan suv to'g'onlarini to'ldirsa, ekin-tikinga

amal qiladi, bo'lmasa, Xudoning kuni deya boshqa yo'llarni izlay boshlashadi. Keyingi yillarda iqlimning o'zgarishi, yog'in-sochinining kam bo'lishi evaziga suv yildan yilga past tashlab boryapti. Bu ham yetmagandek, aholi quduq qazish bo'yicha "poyga" o'ynay boshlagan ham. Kimdir o'n besh metr quduq qazsa, qo'shnisi 20 metr uradi. Bugungi kungacha 100 metrgacha urilgan artezianlar ham bor. Yana bularning har biri 20-30 million so'm xarajat talab qiladi. Asosiy tirikchiligi dehqonchilik bo'lgan qishloq ahli buning uchun bir yillik daromadini sarflashi kerak.

Quduqni chuqurroq qaziyversangiz, uning suvi sho'r bo'lib boraveradi. Ba'zi joylarda sho'r suv ko'p chiqarilishi oqibatida yer unumdorligiga ham jiddiy zarar yetkazilmoqda.

Shularni o'ylay turib, ko'z oldimda bir vaqtlar qishloqning mirosi bo'lgan Omon bobo jonlandi. Besh yuzga yaqin xo'jalikdan iborat Quvkalla qishlog'i odamlari dehqonchiligi

uzumchilik bilan shug'ullanadi, daromadi shundan. Ertadan to kechgacha suv kechib, o'zgalarning hojatini chiqaradigan miros suvi taqsimlanadigan joylar uchun juda ahamiyatli va mas'uliyatli kasb. Biror kamarning suvini yig'ib, katta hovuzga to'plash, uni navbati bilan aholiga taqsimlab chiqish mirosning zimmasida.

Qishloq bag'irlab yuqoriga chiqaversangiz, ulkan Qismoq toshga duch kelasiz. Uning qabatida bir tekis tosh bo'ladi. Omon bobo mana shu yerda turib, butun qishloqqa suv taqsimlardi. Bolaligimizda Saroy atalmish qishloq bilan 15 chaqirimcha oralidagi joylarga suv tortib borardi. Ba'zida birovlar bilan urishsa, ba'zan kimlarningdir duosini olardi. El orasida yaxshi inson bo'lib o'tdi. "Suv bergan elda aziz", deydi dono xalqimiz. Ba'zan tog' yo'li tomon mol-hol haydab borsang, Omon bobom do'mbrasini chertib, o'sha toshning ustida doston aytib o'tirardi.

Uzoqlarga boqishib, Suvday bo'lib oqishib, Satta martalar jo'nadi, Bo'l-ha, bo'l-ha bo'l deyishib.

Uning boshidagi sarg'ayib ketgan do'ppi, yuzidagi ajnalar, yavolda jonlangan sezgilar o'ziga to'raveradi. Omon bobo o'tgi ketdi. U boshqargan, taqsimlangan suvning tagi ko'rinib, uzoq manzillarga yetib bormay qo'ydi. Odamlar suv topishning har yo'lini axtardi. Yuqorida aytganimizdek, o'ziga xos "poyga"lar boshlandi. Uzoqning hadisini olgan el tinch-totuv yashaydi. Taraqqiyot strategiyasida ham aholining ichimlik suv bilan ta'minlanishini darajasini oshirish, oqova suv tizimlarini yangilash vazifalari belgilangan.

Bugun adirlar bag'riga yondosh qurilgan uylarga ham toza suv yetib borgan. Endi qishloqdagi har bir xo'jalikka quvurlar tortilgan, qulog'ini burasa bo'ldi. Ey, zamonangandan o'rgilay, deydi yoshi ulug'lar.

Publication information including address, phone numbers, website, and contact details for the newspaper.